

**O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIIY VA O`RTA MAXSUS TA`LIM VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI  
SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI  
IJTIMOIY-IQTISODIYOT FAKULTETI**

## **BITIRUV MALAKAVIY ISHI**

**Mavzu: IJTIMOIIY HIMOIYANI AMALGA OSHIRISHDA  
IJTIMOIY INSTITUTLAR AHAMIYATI**

**Bajardi:** 5520100 – “Ijtimoiy ish”  
yo`nalishi 4-bosqich talabasi  
Ro`zmetov Mo`minjon

---

**Ilmiy rahbar:** “Ijtimoiy ish” kafedراس  
o`qituvchisi O.E.Navruzov

---

**SAMARQAND – 2018**

# **Mavzu: IJTIMOIIY HIMOIYANI AMALGA OSHIRISHDA IJTIMOIIY INSTITUTLAR AHAMIYATI**

## **Reja**

Kirish

**I-Bob. Ijtimoiy himoya tizimining ijtimoiy ish sohasidagi o' rni va amalga oshrilish shartlari.**

**1&. Ijtimoiy himoyaning instutsional amalga oshirilishda tartibi o' ziga xos jihatlari.**

**2&. Ijtimoiy himoya ijtimoiy ish sohasining tarkibiy qismi sifatida tarixiy shakillanish bosqichlari.**

**II- Bob. O'zbekiston Respublikasida aholini ijtimoiy himoyalashning qonunchilik asoslari va tabaqaviy jihatlari.**

**1&. Davlat va nodavalat tashkilotlar tomonidan ijtimoiy himoyaning amalga oshirilishi.**

**2&. Aholini ijtimoiy muhofaza qilishga yo' naltirilgan davlat dasturlari va qonunlarining ijtimoiy ahamiyati.**

Xulosa

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

## Kirish

**Mavzuning dolzarbligi.** O‘zbekistonda mustaqillik yillarida aholini har tomonlama ijtimoiy himoya qilishga qaratilgan islohotlar peshma-pesh hayotimizga joriy qilinayapti. Bu borada qonunlar, hukumat, Prezident qaror va farmonlari qabul qilinib, ijrosi ta‘minlanayapti. Ijtimoiy himoya har bir davrda o‘ziga xos shakilga ega bo‘lib bevosita kishilar hayotini ularning turmush darajasini ko‘tarishga xizmat qilib kelingan<sup>1</sup>, ijtimoiy himoya kishilik jamiyatining ajralmas qismi sifatida turli ko‘rinishlarda amalga oshirilganligi ma‘lum, xususan etarli mulkka ega bo‘lgan kishilar, davlat tomonidan ijtimoiy himoyaga muhtoj deb topilgan kishilarga davlat o‘zi tomonidan shuningdek jamoatchilik asosida yig‘ilgan mablag‘lar asosida amalga oshirilgan.

Malakaviy bitiruv ishida ijtimoiy himoya tizimining bugungi kundagi amalga oshirilish shartlari va uning ijtimoiy ish sohasida namoyon bo‘lish shkillari to‘g‘risida fikr yuritiladi, shuningdek ijtimoiy ish yangi soha sifatida ijtimoiy muhofaza, ijtimoiy himoya bilan bog‘liq jihatlariga alohida e‘tibor qaratiladi. Bozor iqtisodiyotiga bosqichma- bosqich o‘tayotgan O‘zbekiston davlatining ijtimoiy himoya sohasida amalga oshirayotgan islohatlarining natijasi ularning bevosita ijtimoiy ish sohasi bilan bog‘liq jihatlariga alohida e‘tibor berdim. Xususan, ijtimoiy himoyaning davlatchilik qurish bilan chambarchas bog‘liq ekanligi alohida to‘xtalib o‘tdim.

**Malakaviy bitiruv ishining maqsadi** davlat ijtimoiy siyosatining nazariy va iqtisodiy masalalarini, shuningdek, ijtimoiy siyosat chora-tadbirlarini moliyaviy ta‘minlash masalalarini o‘rganishdan iboratdir.

Mavzuning oldiga qo‘yilgan maqsadlarini amalga oshirish uchun quyidagi **vazifalar** belgilab olindi:

---

<sup>1</sup> Mamlakatimizni modernizasiya qilish va kuchli fuqarolik jamiyati barpo etish – ustuvor maqsadimizdir. – Prezident Islom Karimovning O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining qo‘shma majlisidagi ma‘ruzasi // Xalq so‘zi,

- davlat ijtimoiy siyosatining mohiyati, asosiy yo'nalishlari va iqtisodiy asoslarini o'rganish;

- davlat ijtimoiy siyosati tadbirlarini mablag' bilan ta'minlashning tashkiliy-huquqiy asoslarini tadqiq qilish;

- ijtimoiy sohalarning muhim bo'g'ini bo'lgan ta'lim va sog'liqni saqlash sohasidagi davlat siyosatini moliyaviy ta'minlash holatini tahlil qilish;

- aholini ijtimoiy muhofaza qilish tadbirlarini moliyalashtirish holatini o'rganish;

- bandlikni oshirish va aholi pul daromadlarini barqarorlashtirishning davlat ijtimoiy siyosati yo'nalishi sifatidagi holatini tahlil qilish;

- jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozidan chiqish davlat dasturini amalga oshirish sharoitida ijtimoiy siyosat yo'nalishlari va ularni moliyaviy ta'minlash masalalarini o'rganish;

- davlat ijtimoiy siyosati tadbirlarining iqtisodiy asoslarini mustahkamlashga qaratilgan xulosalar va aniq takliflar tizimini ishlab chiqish, ularni nazariy jihatdan asoslab berish.

**Malakaviy bitiruv ishining nazariy-uslubiy manbai** sifatida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.Karimovning xalqaro miqyosda yuqori baholanayotgan va ijobiy natijalarini mamlakatning taraqqiyoti tajribasi tasdiqlayotgan tanlangan asarlari to'plami hamda shu sohaga taaluqli ilmiy asarlardan foydalanildi.

## **I-Bob. Ijtimoiy himoya tizimining ijtimoiy ish sohasidagi o'рни va amalga oshirilish shartlari.**

### **1&. Ijtimoiy himoyaning instutsional amalga oshirilishda tartibi o'ziga xos jihatlari.**

Fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari tomonidan muhtoj oilalarni qayd qilish va hisobga olish tartibiga ko'ra, nafaqani tayinlash va to'lash jarayoni quyidagicha sodir bo'ladi. Avvalambor, madad pulini olish yuzasidan murojaat qilgan ota yoki ona (yoki ota-ona o'rnini bosuvchi shaxs)\*ning yozma arizasi asosida muhtoj oilalar aniqlanadi. Madad puliga da'vo qiluvchi qatlamlarning arizasida nafaqa so'rab murojaat qilishga undovchi sabablar, oila a'zolarining tarkibi hamda oila a'zolarining ariza berish sanasidan oldingi 12 oy davomida olgan daromadlari shaxsiy tomorqa xo'jaligini yuritishdan tushgan daromadlari qo'shilgan holda ko'rsatiladi. Arizaning namunaviy shakli hujjatlarga ilova qilinishi shart hisoblanadi va oilaning tarkibi to'g'risida ma'lumotnoma bilan tasdiqlanib, agarda bunday ma'lumotlar fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organida bo'lsa, u holda, mahalla kengashi tomonidan oilaning uy kitobidan ko'chirma qilib olinadi. Bolalarning yoshi to'g'risidagi ma'lumotlar fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organi yoki notariusda belgilangan tartibda tasdiqlangan tug'ilganlik haqidagi guvohnomalarning nusxasi bilan tasdiqlanadi. Ota-onadan boshqa shaxslarning qaramog'ida bo'lgan bolalarga nafaqa tayinlashda, bolalarni vasiylikka (homiylikka) olish to'g'risida qaror chiqargan organning qaroridan ko'chirma taqdim etiladi.<sup>1</sup>

---

Ushbu tartib mahalla orqali moddiy yordam oluvchi har uch kategoriya uchun birday tegishli.

<sup>1</sup> «16 yoshgacha bolali bo'lgan oilalarga nafaqa tayinlash va to'lash to'g'risida» gi Nizom va «Ishlamaydigan onalarga bolani 2 yoshga to'lguncha parvarish qilish bo'yicha nafaqa tayinlash va to'lash to'g'risida»gi Nizomga muvofiq.

Oila a'zolarining olgan daromadlari ishlovchilar uchun ish joyidan, tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi shaxslar uchun soliq organlaridan, ishsiz sifatida qayd qilinganlar uchun mehnat birjasidan, ishlamaydigan pensionerlar uchun ijtimoiy himoya organlari tomonidan berilgan ma'lumotnoma bilan to'ldiriladi. Ushbu hujjatlarni arizachi har oyning 20 sanasigacha mahalla yig'iniga taqdim etishlari mumkin. Oila a'zolarining daromadlari va uning tarkibini tasdiqlovchi hujjatlar har bir oila uchun alohida ariza bilan birga qo'shib tikib qo'yiladi va fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlarida saqlanadi. Hujjatlar fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlarida 2 yil muddat davomida saqlanib, muddat tugagach o'rnatilgan tartibda arxivga topshiriladi. Arizachilarni ro'yxatga olishning maxsus kitobida, ularning tushish tartibi bo'yicha qayd qilinadi. Unda arizani qayd qilish sanasi, ariza bergan shaxsning ismi, sharifi, pasport seriyasi, yashash manzili, bolalari haqidagi ma'lumot ko'rsatiladi. Fuqarolar yig'ini (vakillar yig'ilishi) nafaqa tayinlash yoki rad etish to'g'risida qaror qabul qilingandan so'ng ro'yxatga olish kitobiga fuqarolar yig'ini bayonining sanasi va raqami, tayinlangan nafaqa miqdori hamda uni to'lab boshlangan oyi to'g'risida ma'lumot kiritiladi. Biz «O'zbekistonda aholini ijtimoiy himoyaning tartibga solinishida mahalliy o'zini-o'zi boshqaruvning roli» mavzusidagi sosiologik so'rovlarimiz davomida mahalla fuqarolar yig'iniga madad so'rab murojaat qilish dinamikasini o'rganish maqsadida respondentlarga navbatdagi savolimiz bilan murojaat qildik va quyidagi natijalarga ega bo'ldik.

Moddiy yordam to'lash muddati tugagach, shuningdek, oilaning moddiy ahvoli yaxshilanganda, doimiy yashash joyi o'zgarganda kam ta'minlangan oilaga moddiy yordam ko'rsatish to'xtatiladi. Bolalari to'liq davlat himoyaida bo'lgan oilalarga, ota-onasi qonunchilikda belgilangan tartibda ota-onalik huquqidan mahrum etilgan oilalarga, moddiy boyligi (daromadi) bolalarning rivojlanishini ta'minlash imkonini beradigan oilalarga moddiy yordam tayinlanmaydi va to'lanmaydi. Bu holda rad javobi oilada band bo'lmagan a'zolarining daromad keltiruvchi foydali mehnatga jalb qilish

orqali uning moddiy sharoitini yaxshilash uchun obyektiv imkoni borligi bilan asoslanadi. Bunda, oilaning har bir a'zosiga to'g'ri keladigan daromadi o'rnatilgan nafaqaga muhtojlik mezonidan yuqori ekanligiga e'tibor qaratiladi. Agarda oilalarga nafaqa tayinlanib bo'lgandan keyin favquloddagi hollarda fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlarining hisob raqamida foydalanilmagan (erkin) qoldiq mablag'lar bo'lsa, tarkibida nogiron bolalar, ota-onasiz qolgan bolalar tabriyalanayotgan oilalarga oilaning har bir a'zosiga to'g'ri keladigan jami daromadning o'rtacha miqdori fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organi o'rnatgan mezondan yuqori bo'lishiga qaramay, nafaqa tayinlanishi mumkin. Bunday holatlarda, yig'in bayonida har bir a'zosiga to'g'ri keladigan jami daromadning o'rtacha miqdori fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organi o'rnatgan mezondan yuqori bo'lgan oilaga nafaqa tayinlash sababi ko'rsatilishi lozim.

Mahalla yig'ini tomonidan muhtoj qatlamlarga tayinlangan bir martalik mablag'ni oxirigacha sarflashga harakat qilinadi. Sababi, tizimga ajratilayotgan mablag' har qanday holatda ham mahalla ixtiyorida qoladi va u qaytarib olinmaydi yoki boshqa mahallalar o'rtasida taqsimlanmaydi. Tejalgan mablag'lar esa, mahalla yig'ini tomonidan asosan mahalla hududini rivojlantirish va obodonchilik ishlariga sarflanadi.

Moddiy yordam kam ta'minlangan va 16 yoshgacha farzandlari bo'lgan ko'p bolali oilalarga – 3 oy, 2 yoshgacha bola parvarishi bilan band onalarga – 1 yillik muddatga tayinlanadi. Muddat tugagach ushbu jarayon yangidan boshlanishi nazarda tutiladi. 1995 yil 20 noyabrdagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Bolali oilalarga davlatning ijtimoiy yordamini kuchaytirish to'g'risida»gi Farmoni asosida 16 yoshgacha bolalari bo'lgan oilalarga beriladigan har oylik nafaqalar ikki bolali oilalarga eng oz ish haqining 60 foizi, uch bolali oilalarga eng oz ish haqining 80 foizi, to'rt bolali oilalarga eng oz ish haqining 100 foizi, besh va undan ortiq bolali oilalarga eng oz ish haqining 120 foizi qilib belgilandi.<sup>1</sup> Ushbu farmon mamlakatimizdagi

---

<sup>1</sup> Bolali oilalarga davlatning ijtimoiy yordamini kuchaytirish to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmoni // O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi. – Toshkent, 1995. - №10. – B. 51.

demografik vaziyatdan kelib chiqib kam ta'minlangan oilalarga ajratilayotgan moddiy yordamning miqdoriga aniqlik kiritdi.

2007 yilni «Ijtimoiy himoya yili» – deb e'lon qilinishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Aholini ijtimoiy himoya qilish tizimini yanada takomillashtirish va mustahkamlashga oid chora-tadbirlar to'g'risida»gi 3864-son Farmoni asosida kam ta'minlangan oilalarga moddiy yordamni tayinlash va to'lash 6 oygacha muddatga uzaytirildi. Bizning fikrimizcha, ushbu farmon kam ta'minlangan oilalarga beriladigan kafolatlar doirasini kengaytirish bilan bir vaqtda fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari tomonidan muhtoj oilalarga moddiy yordam pulini qayta tayinlash masalasidagi murakkabliklarini bartaraf etish imkonini berdi. Farmonga ko'ra, kam ta'minlangan oilalarga moddiy yordam tayinlash va to'lash masalasini qaytadan ko'rib, uni alohida ravishda yangi qaror qabul qilgan holda tayinlash shart emas. Chunki, moddiy yordamni qaytadan yangi muddatga tayinlashni taqozo etuvchi sharoit yaxshi tomonga o'zgarmagan taqdirda ham moddiy himoyaga muhtoj bo'lgan hamda ro'yxatda turgan boshqa oilalar ham bo'lishi mumkin.

Oilalar nafaqani o'zlari yashab turgan joydagi Xalq banki muassasalaridan, fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari taqdim qilgan to'lov varaqalari asosida olishlari mumkin. To'lov varaqasi hisobot hujjati bo'lib hisoblanadi va fuqarolarni o'zini-o'zi boshqarish organida moliyaviy hujjatlarni saqlash qoidalariga muvofiq holda saqlanadi. Mablag'larni ishlatilishi to'g'risidagi hisobotlar mahalla raisi tomonidan yurgiziladi va har oyning 10 sanasiga qadar tuman (shahar) hokimligining Moliya hamda Mehnat va aholini ish bilan ta'minlash va ijtimoiy himoya bo'limiga taqdim qilinadi.<sup>1</sup> Ushbu bo'limlar umumlashtirilgan ma'lumotlarni hisobot qilingan oydan keyingi oyning 15 sanasiga qadar tegishli viloyat boshqarmasiga taqdim qiladi. Viloyat

---

<sup>1</sup> «16 yoshgacha bolali bo'lgan oilalarga nafaqa tayinlash va to'lash to'g'risida» gi Nizom va «Ishlamaydigan onalarga bolani 2 yoshga to'lguncha parvarish qilish bo'yicha nafaqa tayinlash va to'lash to'g'risida»gi Nizomga muvofiq.



hokimligining Moliya boshqarmasi, Mehnat va aholini ijtimoiy himoya boshqarmalari umumlashtirilgan ma'lumotlar asosida hisobotlarni har oyning 18 sanasiga qadar tegishli vazirliklarga ularni jamlash va tahlil qilish uchun taqdim qilishlari shart.

Madad pulini tayinlash va to'lash jarayonida mahalla yig'ini va tegishli organlar (Mehnat va aholini ijtimoiy himoya Vazirligining joylardagi boshqarmalari, Moliya vazirligining tegishli bo'limlari, Xalq Banki shahobchalari) tomonidan noqonuniy harakatlar, suiste'molliklarni oldini olish va bartaraf qilish maqsadida hisobot yilining birinchi va ikkinchi qismlarida Prokuratura, Moliya va taftish bo'limlari tomonidan tekshirilib turiladi. Mazkur muammo borasida jamoatchilik fikrini o'rganish maqsadida mahalla fuqarolari yig'inlari raisi va faollariga savol bilan murojaat qildik. Olingan natijalarni quyidagi diagrammada ko'rib o'tishimiz mumkin.

Har yili ijtimoiy madad tizimi va bolalar yordam pullariga yo'naltirilgan umumiy byudjet mahalla tomonidan o'tgan hisobot davri davomidagi foydalanilgan mablag' summasiga asoslanib olinadi. Mablag'ni viloyatlar va tumanlar o'rtasida taqsimlash mavjud viloyatlarda yashayotgan oilalarning soniga qarab taqsimlanadi, keyingi ta'minlashlar o'tgan yilgi hisobot asosidan olinadi.

O'zgarlar parvarishiga muhtoj yolg'iz pensionerlarni asosiy oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlash va ijtimoiy himoyaga muhtoj yosh oilalarni qo'llab-quvvatlash mahalla faoliyatining yo'nalishi sifatida ijrosiga olinishi bilan bu organlarning ijtimoiy himoya sohasidagi mas'uliyati yanada oshdi. BMT Dasturining eksperti K. Griffin ta'kidlashicha, «Bu puxta va uncha qimmat bo'lmagan tizim uzoq (an'anaviy, tarixiy) rivojlanishga asoslanib, mahalliy aholining ishonchini qozondi. Tajriba shuni ko'rsatadiki, mahalla tomonidan muhtoj deb aniqlangan aholi qatlami haqiqatdan ham nochor guruhga taalluqli yoki o'ta kam daromad yoki eng kam maosh miqdoridan kam pul topadi».<sup>1</sup> Darhaqiqat, bu jarayon barcha o'ta muhtoj va muhtoj oilalarni moddiy qo'llab-quvvatlashni qamrab oladi va umuminsoniy qoidalar, milliy an'analar, ruhiyatga mos keladi.

---

<sup>1</sup> Гриффин К. Социальная политика и экономическая преобразования в Узбекистане. ПРООН, 1995. – 173 с.

Shu o'rinda qayd etib o'tish kerakki, mahalla qo'mitasi raisi, kotibi, posbon hamda ma'naviy-ma'rifiy, diniy-axloqiy ishlar bo'yicha maslahatchilar shtat birligi bo'yicha maosh oladilar. Bu holat mahallalar «xalqdan uzoqlashib», rasmiy hokimiyatning quyi bo'g'iniga aylanib borayotganligi to'g'risidagi fikrlarni shakllantirmoqda. Biroq, bizning tadqiqotlarimiz mahalla raislari va faollariga davlat tomonidan ma'lum miqdorda maosh ajratilishi bozor iqtisodiyoti sharoitiga xos xususiyat ekanligini ko'rsatadi. Zero, M.Bekmurodov ta'kidlaganidek, «Bozor munosabatlari insonni tartibli hayotga undaydi, fikrlab ish tutishga, tabirkorlikka da'vat etadi. Bozor hamma narsaga ongli yondoshuvni, oqillik bilan munosabatda bo'lishni talab etadi».<sup>1</sup> Darhaqiqat, o'tish davrida ijtimoiy-iqtisodiy qadriyatlarning o'zgarishi natijasida aholida haq to'lanmaydigan ishda band bo'lish xohishining pasayishi, ijtimoiy faoliyat samaradorligini oshirishda esa moddiy farovonlik tuyg'usi turtki bo'lishini ko'rsatdi.

Ilmiy izlanishlarimiz tizimni moliyalashda ba'zi ma'muriy xarajatlar yuzaga kelayotganligi, shunday bo'lsa-da bu xarajatlar mablag'ni taqsimlashdagi rasmiy ma'muriy tuzilmalarga sarflanayotgan mablag'ga nisbatan ancha kamligini ko'rsatmoqda. Mahallaga yuklatilgan ijtimoiy himoya bolalar yordam pulini taqsimlash vakolati berilgach yanada kuchaydi. Bu vazifalarni unumli bajarish uchun mahalla qo'mitalarida shtat birligi bo'yicha band bo'lganlarning kasbga tayyorgarligi va malakasini oshirish muammosini keltirib chiqarmoqda. Maxsus kurslar, seminar-treninglarni tashkil qilish va o'tkazish borasida esa izchillik kuzatilmaydi. Shu sababli, ba'zi muammolar ma'lum muddatlargacha saqlanib qolishi mumkin.

Ijtimoiy himoya sohasida fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari tomonidan davlat vakolatlarining katta qismini olinishi, birinchidan, mahallalarning mavqeyini ko'tarilishiga xizmat qilsa, ikkinchidan, ularni amaliyotini ta'minlashga qaratilgan mukammal mexanizmni (tashkiliy, moddiy-moliyaviy, huquqiy) yanada takomillashtirish zaruriyatini ko'rsatdi. Bu mexanizm samaradorligini ta'minlash

---

<sup>1</sup> M.B.Bekmurodov., A.Begmatov. Milliy mentalitet va rahbar ma'naviyati. – Toshkent: Adolat, 2003. – 9 b.

fuqarolarni o'zini-o'zi boshqarish organlarining ijtimoiy himoya faoliyatini tashkil qilish va rivojlantirishning tashkiliy, iqtisodiy, moliyaviy tizimlarini kuchaytirish, zarur bo'lganda bozor munosabatlarini rivojlanish jarayoniga moslab o'zgartirishlar kiritishni, tegishli huquqiy bazasini takomillashtirish ehtiyojini kuchaytiradi. Zero, bugungi kunda mahalla vositasida muhtoj qatlamlarni ijtimoiy himoyalashda qator muammolar mavjudki, ularni bartaraf etilishi bir tarafdin mahalliy o'zini-o'zi boshqaruvni takomillashtirsa, ikkinchidan, davlatimiz ijtimoiy siyosatini samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Xullas, ilmiy tadqiqot ishining mazkur bandi mohiyatidan kelib chiqib xulosa qiladigan bo'lsak, birinchidan, o'tkazilgan sosiologik tadqiqotlarimiz va boshqa rasmiy statistik ma'lumotlar, hujjatlar tahlili o'tish davri muammolariga qaramay, ijtimoiy himoya tizimining tartibga solinishida mahalliy o'zini-o'zi boshqaruv organlarining faoliyati samarador ekanligini ko'rsatdi.

Ikkinchidan, ijtimoiy madadning mahalla tizimini noyobligi shundaki, u muhtoj qatlamlarni aniqlash va ularga yordamni taqsimlash qarorlarini qabul qilishda yozilgan qoidalar (rasmiy ariza, komissiya muhokamasi uchun keltirilgan batafsil ma'lumotlar) va erkin taqsimlash (mahalliy ko'rsatikichlar) ni o'zida mujassamlashtiradi.

Uchinchidan, bu yerda «o'z-o'zidan tashkillanish» holati yuz beradi, sababi o'zlarini moddiy yordamga muhtoj deb hisoblovchi oilalar rasmiy ariza bilan murojaat qiladilar, arizalarni ochiqchasiga muhokama qilinishi nazorat komissiyasiga oila tomonidan qalbaki yoki noto'g'ri axborot yetkazilishini oldini oladi.

To'rtinchidan, ijtimoiy himoyaning mahalla tizimi markaz tomonidan o'rnatilgan va chegaralangan formulalar asosida daromad haqida axborot beruvchi boshqa tizimlardan tubdan farq qiladi.

Beshinchidan, mamlakatimizda ijtimoiy siyosatning tarkibiy qismi bo'lgan bu tizim yangi, aniq maqsadli mexanizm sifatida sobiq sovet davlati o'rnida paydo bo'lgan respublikalarda katta qiziqish uyg'otmoqda va ijtimoiy himoyaning o'ziga xos yechimiga ega bo'lgan «o'zbek modeli» sifatida talqin etilmoqda.

Oltinchidan, bugungi kunda respublikamizda aholini ijtimoiy himoyaning tartibga solinishida mahalla tizimining samaradorligi to'g'ri baholangan holda vakolatlari doirasi kengayib bormoqda.

1994 yil 24 avgustda «Kam ta'minlangan oilalarni ijtimoiy himoyalashni kuchaytirishga oid tadbirlar to'g'risida»gi Prezident Farmoni qabul qilindi. Ushbu qonunchilik hujjatining qabul qilinishi bilan respublikada aholini ijtimoiy himoya tizimi tubdan o'zgartirildi. Qayd etish joizki, ijtimoiy sohada qabul qilingan qonunchilik hujjatlari o'zida mamlakatimizning milliy xususiyatlarini aks ettiribgina qolmay, xalqaro huquq me'yorlariga, jumladan, BMTning Inson huquqlari Umumjahon Deklarasiyasining barcha shartlariga va 1966 yilda qabul qilingan Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to'g'risidagi Xalqaro Paktning bosh tamoyillariga mosdir.

Ushbu paktning 10-moddasida «Jamiyatning tabiiy va asosiy hujayrasi hisoblanmish oilaga imkoni boricha keng ko'lamda yordam berilishi va himoya etilishi zarur. Ayniqsa, u shakllanayotgan davrda bunday ko'mak zarur, chunki mustaqil bo'lmagan bolalar va ular tarbiyasi borasidagi g'amxo'rlik hozircha oila zimmasiga tushmoqda. Bola tug'ilishidan oldin va undan keyingi davrda onalarga alohida e'tibor berilishi lozim. Bu davr maboynida ishlovchi onalarga haq to'lanadigan ta'til yoki ijtimoiy himoya bo'yicha yetarli nafaqa bilan ta'til berilishi kerak»,<sup>1</sup> – deb belgilab qo'yilgan. Xullas, bu qadam respublikamiz ijtimoiy himoya tizimi rivojining ikkinchi, yuqoriroq bosqichi bo'lib, bu bosqichda ijtimoiy himoya aholining aniq tabaqalarini qamrab olishga qaratildi. Endilikda, bolalar va kam daromadli oilalar ijtimoiy himoyadan bahramand bo'luvchi asosiy kishilar, uni yetkazuvchi esa – mahallalar bo'lib qoldi. Bunda aholi hayoti oilaviy, jamoaviy turmush tarziga asoslanganligi e'tiborga olindi. I.Karimov ta'kidlaganidek, «Sharq xalqlarida, jumladan, o'zimizning O'rta Osiyo sharoitida jamoa bo'lib yashash

---

<sup>1</sup> Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to'g'risidagi Xalqaro Pakt // Inson huquqlari bo'yicha xalqaro shartnomalar to'plami. Mas'ul muharrir Saidov A. – Toshkent: Adolat, 2004. – 62 b.

tuyg'usi g'oyat muhim ahamiyat kasb etadi va odamlarning bir-biriga yaqinlashtirishga, bir-birini qo'llab-quvvatlab hayot kechirishga zamin tug'diradi».<sup>1</sup> Zero, oila, jamoa kishilarning qon-qarindoshlik, mulk va manfaat umumiyligi, talab va ehtiyojlarini birgalikda qondirishga asoslangan, maqsadi yagona bo'lgan majmua, ya'ni, mikroijtimoiy tuzilmadir.

Iqtisodiy jihatdan qaraganda oila uy xo'jaligi bo'lib, mikroiqtisodiy tizimning asosiy bo'lagi hisoblanadi. Uning boshqa qismini esa firmalar, korxonalar tashkil etadi. Oila shu qismlari bilan birgalikda mikroiqtisodiy tizimga, ya'ni, milliy iqtisodga birikadi va tor doiradagi hodisa bo'lmay jamiyatning bir bo'lagi, aniqrog'i, uning asosini tashkil qiladi. Oilani qo'llab-quvvatlashning samarali usullarini ishlab chiqish uchun kam ta'minlangan oilalarning ijtimoiy ahvoli va kambag'allik muammolarini chuqur o'rganib chiqish ehtiyoji tug'iladi. Sababi, bunday oilalarning oylik daromadi iste'mol ehtiyojidan past bo'lib, daromadining 75-85% oziq-ovqatga sarflanadi.<sup>2</sup> Kambag'allikni aniqlash bilan esa, har bir davlat faqat o'ziga tegishli bo'lgan vazifalarni hal qilishga harakat qiladi.<sup>3</sup> Masalan, rivojlangan davlatlar kambag'allikni aniqlash orqali o'rta va quyi qatlamlar o'rtasidagi chuqur differentsiya va ijtimoiy zarbalarga yo'l qo'ymaslikka intiladilar.

O'tish davri iqtisodiyotini boshidan kechirayotgan davlatlar uchun kambag'allik darajasini aniqlash yangi bozor sharoitlariga moslasha olmayotgan aholi guruhlarini manzilli ijtimoiy yordam strategiyalarini ishlab chiqish nuqtai nazaridan muhimdir. Qayd etib o'tish kerakki, bir mamlakatda qabul qilingan yashash uchun zarur eng kam miqdor boshqa davlat sharoitlariga to'g'ridan-to'g'ri mos kelmaydi. Har bir davlat aholisining turmush darajasini aniqlab beruvchi o'ziga xos

---

<sup>1</sup> Karimov I. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma'naviyat, 2008. – 7 b.

<sup>2</sup> Саидова Г. Социальная политика правительства Узбекистана в переходном периоде: достижения и проблемы // Экономическое обозрение. – Тошкент, 1998. - №1. – С. 15.

<sup>3</sup> Алибекова С., Саидов К. Проблема бедности в Узбекистане в переходный период // Аҳолини турмуш даражасини кўтариш ҳамда ижтимоий ҳимоясини кучайтириш йўллари ва воситалари: Илмий-амалий конференция материаллари. – Самарқанд: СамДУ нашри, 2002. – Б. 18.

o'lchamlariga ega bo'lib, mavjud andozalardan og'ish hollarida ijtimoiy himoya tadbirlari kuchaytiriladi.

Respublikamizda aholining yordamga muhtoj qatlamlarini aniqlashda mazkur omillarga asoslanib ish ko'rildi va kam ta'minlangan oilalarni ijtimoiy himoyaning yangi dasturi ishlab chiqildi. Unga ko'ra, mahalladagi kam ta'minlangan oilalarni aniqlash va aynan muhtoj kishilarga yordam berishning tarixan adolatli tizimi qayta tiklandi. Ijtimoiy adolat tamoyiliga og'ishmay amal qilingan holda, ko'rsatilayotgan moddiy yordamning aniqligini ta'minlash, uni haqiqatdan muhtoj oilalarga berish, aholini ijtimoiy himoyalash chora-tadbirlariga ayrim oilalar tomonidan boqimandalik kayfiyatida munosabatda bo'lishga yo'l qo'ymaslik, oila a'zolari, ayniqsa, bolalarning moddiy farovonligi, har tomonlama jismonan va ma'nan barkamol bo'lishi, ma'lumot va kasb darajasini oshirishi uchun zarur bo'lgan sharoitlar yaratishda oilaning mas'uliyatini kuchaytirish nafaqa to'lashning mezonlari va majburiy shartlar qilib belgilandi.

Mahallalarga jamoada nisbatan kam ta'minlangan oilalar hamda ariza bilan murojaat qilgan muhtoj kishilarning huquqlarini turli ijtimoiy ko'rsatkichlar orqalari aniqlash mas'uliyati yuklatildi. Ijtimoiy himoyaning ushbu tizimida kam ta'minlangan aholi qatlamlarini aniqlash mezonlari davlat dasturlari, maxsus yo'riqnomalarda aniq belgilangan bo'lib, e'tiborlisi, mahalla kengashilarining nafaqat rasmiy ko'rsatkichlarga tayanib qolmasdan, ma'lum mahalla hududida istiqomat qiluvchi aholi haqida to'liq ma'lumotga ega bo'lgan mahalla oqsoqollari, faollarining maslahatlari asosida ish yuritish imkoniyatiga ega bo'ldi va ushbu sohada mahalliy o'zini-o'zi boshqaruv organlarining mustaqil faoliyati qo'llab-quvvatlandi hamda ularga ishonch bildirildi.

Jahonda o'zini-o'zi boshqaruvning asosan uch xil modeli ajratib ko'rsatiladi. Bular anglosakson (ingliz), kontinental (fransuz) va qayd etilgan ikki usul asosida shakllangan

aralash model.<sup>1</sup> Ushbu modellar mahalliy o'zini-o'zi boshqarish organlarining tegishli davlat organlari yoki boshqa tashkilotlar bilan munosabatga kirishish tamoyillari asosida bir-biridan farqlanadi. Xususan, kontinental model ilk bor Fransiyada shakllanganligi uchun fransuzcha model sifatida ham qabul qilinib Fransiya, Italiya, Shvesiya, Niderlandiyada amalda bo'lgan mahalliy boshqaruv organlari mansubdir. Bu modelda o'zini-o'zi boshqarish organlari keng qamrovli huquqlar va sezilarli mustaqillikka ega bo'lishiga qaramasdan, o'zidan yuqori turuvchi munisipal boshqaruvning tegishli bo'g'inlariga bo'ysunadi. Fransiyada mahalliy o'zini-o'zi boshqarish organi – kommunalarning o'ziga xos xususiyatlaridan biri XX asrning 80-yillaridan ularning aholini ijtimoiy himoyadagi rolini sezilarli tarzda kuchayishidir. Kommunalarda ijtimoiy himoya Ijtimoiy himoya bo'limi (ITB) tomonidan amalga oshirilib u ikkiyoqlam, ya'ni, prefektura va meriyalarga bo'ysunadi. Sababi, ITB kommuna hududi bo'yicha ijtimoiy himoyani taqsimlash va yo'naltirish vazifasini bajaradi. Mohiyatan, ITB kommuna ijtimoiy hayotining bosh organi hisoblanadi. Yirik kommunalarda ular haqiqiy muassasa ko'rinishga ega bo'lib, meriyadan tashqarida alohida binolarda joylashgan va zamonaviy texnologiyalar bilan jihozlangan. ITBning vazifalari nafaqaxo'rlar, yolg'iz qariyalar, ko'p bolali oilalar, nogironlarga ko'satiladigan alohida g'amxo'rlik (doimiy ko'mak pullari, natura ko'rinishidagi bayram sovg'alari, oziq-ovqat mahsulotlari, kiyim-kechak bilan ta'minlash) va ijtimoiy xizmat (xo'jalikka yordam berish, yegulikni uylarga yetkazib berish, enagalik xizmati, bo'sh vaqtni tashkil qilish, ta'tillarni o'tkazish) lardan iboratdir.

Bugungi kunda, boshqarishning demokratik nomarkazlashtirilishini ta'minlaydigan mahalliy o'zini-o'zi boshqarish xalq hokimiyatining maxsus institutini o'zida namoyon etadi va mahalliy aholining nafaqat ijtimoiy-iqtisodiy muammolarini bartaraf qilish, balki, fuqarolarning siyosiy haq-huquqlari va erkinliklarini amalga oshirish shakllaridan biri sifatida umumbashariy ahamiyatga ega. Shunday bo'lsa-da, ko'rib o'tganimizdek turli davlatlarda va hattoki bir davlat rivojlanishining turli

---

<sup>1</sup> Игнатов В., Бутов В. Местное самоуправление: Российская практика и зарубежный опыт. – М.: МарТ, 2005. – С. 10-13.

bosqichlarida mahalliy o'zini-o'zi boshqarishda yaxlitlik ko'zga tashlanmaydi. Uning tashkiliy shakllari, mahalliy aholining haq-huquqlarini himoya qilish usullari haddan tashqari turli-tumandir. Ammo boshqaruvning ushbu ko'rinishi mohiyatini o'zgartirmaydigan umumiylik mavjud. Bu borada A.Xolbekov «Zamonaviy boshqaruv shakli aholini huquqiy va ijtimoiy himoya qilish siyosatini amalga oshirishda namoyon bo'lishi kerak»,<sup>1</sup> – deb ta'kidlaydi. Darhaqiqat, mahalliy o'zini-o'zi boshqaruvning mohiyati mahalliy darajadagi muammolarni bartaraf etishda saylov tizimi va qonunchilik hujjatlari doirasida markaziy hokimiyatning aralashuvisiz, bevosita fuqarolar tomonidan amalga oshiriladigan boshqaruv tizimi ekanligidadir.

Boshqaruvning bu shaklida fuqarolar subyektiv huquqi jinsi, irqi, millat, tili, kelib chiqishi, mulki va kasbi, dinga munosabati, e'tiqodi, jamoat birlashmalariga mansubligi kabi belgilari bilan chegaralanishi mumkin emas. Mahalliy o'zini-o'zi boshqarish subyekti «mahalliy aholi», ya'ni, shahar va qishloqlarda istiqomat qiladigan hamda mahalliy o'zini-o'zi boshqarishning vakillik organlariga hamda ma'muriy lavozimlarga saylash va saylanish huquqiga ega bo'lgan kishilardir. Ular yuqori davlat organlaridan mustaqil holda mahalliy darajadagi masalalar va muammolarni hal qiladilar, yuzaga kelgan xato va kamchiliklarga javob beradilar. Hyech qanday boshqa organ, jumladan, davlat organlari ham mahalliy o'zini-o'zi boshqaruvning harakatlari uchun mulkiy va boshqa huquqiy javobgarlik mas'uliyatini olmaydi.

O'zbekistonda o'zini-o'zi boshqaruvchi ijtimoiy tashkilotning noyob shakli uzoq tarixiy davrlarga, xalqning qadriyatga aylanib ulgurgan turmush tarzi, an'analari, mentaliteti xususiyatlariga borib taqaladi. Bu mahalliy o'zini-o'zi boshqarish organi – mahalla bo'lib, boshqaruvning xuddi shunday ko'rinishi jahonning biror mamlakatida kuzatilmaydi. G'arb davlatlaridagi mavjud mahalliy o'zini-o'zi boshqaruv tizimi ko'proq bizdagi xalq deputatlari kengashlariga o'xshash bo'lib, qishloq joylarida kichik jamoalar ko'rinishida yuzaga kelgan.

---

<sup>1</sup> A.Xolbekov. Boshqaruv sosiologiyasi. – Toshkent: Akademiya, 2007.



Bugungi kunda fuqarolarning mahalliy o'zini-o'zi boshqarishi O'zbekiston Respublikasining butun hududida amalga oshirilib, 2006 yil 1 yanvar holatiga ko'ra, Respublikada 9950 ta mahalliy o'zini-o'zi boshqarish organlari faoliyat ko'rsatmoqda. Ularning 8369 nafari mahalla fuqarolari yig'inlarini tashkil qiladi. Shundan 102 tasi shaharcha fuqarolar yig'ini bo'lib, ularning tarkibida faoliyat yuritayotgan mahallalar soni 389 (shu jumladan, jamoatchilik asosidagi mahallalar soni 55) tadir. Qishloq fuqarolar yig'ini miqdori 1336 ta bo'lib, unda 5833 (jamoatchilik asosida 1105) mahalla faoliyat yuritadi. Ovul fuqarolar yig'ini soni esa 143 ta bo'lib, mahallalar soni 16 tadir. O'zbekistonda shaharlar soni 30 ta bo'lgani holda, ularning tarkibidagi mahallalar soni 2131 (jamoatchilik asosida 12) tadir. Quyidagi jadvalda mamlakatimizdagi mahalliy o'zini-o'zi boshqarish organlarining viloyatlar bo'yicha taqsimlanishini ko'rib o'tishimiz mumkin.

Tabiiyki, ushbu mahalliy o'zini-o'zi boshqaruv organlarining har biri o'z imkoniyatlarini turli sharoitlarda orttirgan malaka, ko'nikma va manbalar vositasida namoyon etadi. 1990 yilda mahalla qo'mitlari 2108 ta va undagi shtat birliklari esa 4216 ta ni tashkil etganligini e'tiborga olsak, bugungi kunga kelib mahalliy o'zini-o'zi boshqarish organlarining nafaqat miqdori, balki ish yuritish sifatini o'sib borganligining guvohi bo'lamiz.<sup>1</sup> Farqi shundaki, o'sha davrda mahalla qo'mitalari tuzilishi va ish yuritishi faoliyati bir oz soddaroq bo'lgan hamda ular asosan shahar va tuman markazlarida shakllantirilgan. Hozirda respublika miqyosida mavjud mahallalar hududiy jihatdan shaharlardagi an'anaviy mahalla fuqarolari yig'inlari, shaharlardagi kvartal mahalla fuqarolari yig'inlari, shaharchalardagi mahalla fuqarolari yig'inlari va qishloq fuqarolari yig'inlari va ovul fuqarolari yig'inlariga bo'linadi. An'anaviy mahalla va kvartal mahalla fuqarolari yig'inlari nafaqat katta shaharlarga, balki, shaharchalarga ham xosdir. Qishloq mahallalari esa azaldan mavjud bo'lgan qishloqlar hamda yangi qurilgan posyolka, ovul va shu kabilarga taalluqlidir. Mahalla fuqarolari

---

<sup>1</sup> O'zbekistonda ma'naviyat, ma'rifat, fan va jamoatchilik fikri. Jamoatchilik fikrini o'rganish "Ijtimoiy fikr" Markazi hisobotidan // Ijtimoiy fikr. Inson huquqlari. – Toshkent, 2003.

bevosita hamda o'zlarining saylab qo'yiladigan vakillari orqali o'zini-o'zi boshqarishni amalga oshirishda teng huquqqa egadirlar va bunda quyida biz tomonimizdan taklif etilayotgan chizmada ko'rsatilgan tamoyillarga amal qilingan holda ish yuritiladi.

## **I-Bob. Ijtimoiy himoya tizimining ijtimoiy ish sohasidagi o'rni va amalga oshirilish shartlari.**

### **2&. Ijtimoiy himoya ijtimoiy ish sohasining tarkibiy qismi sifatida tarixiy shakllanish bosqichlari.**

Har qanday davlat va jamiyat yuritadigan ijtimoiy siyosat hamda iqtisodiy siyosat o'zaro bog'liq bo'lib, iqtisodiy siyosatning bosh maqsadi ushbu jamiyatda yashayotgan fuqarolar turmush farovonligini ta'minlash, ya'ni ijtimoiy siyosatga xizmat qilishdan iboratdir va shu nuqtai nazardan qaraganda ushbu ikki siyosat o'rtasidagi muvozanatni, ularning o'zaro to'g'ri nisbatining belgilanishi jamiyatda ijtimoiy adolat o'rnatilishining muhim shartlaridan bo'lib sanaladi.

Davlat ijtimoiy siyosati deganda, aholi hayot kechirish darajasini shakllantirish, inson kapitalini qayta yaratish, ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, ijtimoiy infratuzilmalarni barpo etish, ularning bir maromda faoliyat yuritishini ta'minlash sohasida muayyan davlat tomonidan olib borilayotgan ichki siyosat yo'nalishi nazarda tutiladi. Fuqarolarning asosiy Konstitusiyaviy huquqlari davlat ijtimoiy siyosati orqali ro'yobga chiqariladi. Bunda davlat turli ijtimoiy dasturlar ishlab chiqish va amalga oshirish, moliyalashtirish normativlarini belgilash, ijtimoiy-iqtisodiy andozalar, qonunlar, boshqa me'yoriy hujjatlar qabul qilish kabi vositalardan keng foydalanadi.

Shuni qayd etib o'tish lozimki, davlat iqtisodiy va ijtimoiy siyosatida o'zaro nisbatning buzilishi, ya'ni aholi turmush darajasining pasaytirilishi hisobiga jamg'arishga zo'r berilishi, iqtisodiy siyosatni kuchaytirishga urinish ko'pchilik hollarda salbiy natijalarga olib kelayotganligi, bunda ham ijtimoiy ahvol

yomonlashib ketayotganligi va ayni paytda davlat iqtisodiy taraqqiyoti ham orqaga ketayotganligi sobiq Ittifoq tarkibiga kirgan mustaqil davlatlarning ayrimlari tajribasidan ayon bo'lmoqda.

Bunday rivojlanish tendensiyasi tarix uchun yangilik emas, industrial sivilizasiyaning so'ngi 200 yil davomidagi taraqqiyoti davrida iqtisodiy va ijtimoiy siyosat nisbatlarining to'g'ri belgilanmaganligi tufayli salbiy oqibatlar kelib chiqqanligi bizga ma'lum. Shu tufayli XIX asr oxiri va XX asr boshlarida rivojlangan mamlakatlarda ijtimoiy siyosatga katta e'tibor berila boshlandi. Ularda iqtisodiy taraqqiyot yuksak ko'rsatkichlarga erishgani holda aholi turmush darajasi ham yuqori ekanligi, kafolatlangan, ijtimoiy jihatdan himoyalanganliklari sabablaridan biri ham ana shunda bo'lsa kerak.

O'zbekiston Respublikasi hozirgi paytda yangi ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot yo'lidan, bozor munosabatlariga siyosiy va ijtimoiy larzalarsiz, bosqichmabosqich o'tish yo'lidan bormoqsa. Bu yo'l tabiiy, iqtisodiy-moliyaviy, mehnat va boshqa resurslardan oqilona foydalanishni tashkil etish orqali jamiyatni rivojlantirish, samarali iqtisodiyotni yuzaga keltirish, odamlar turmush darajasini taraqqiyotga erishgan mamlakatlardagi ko'rsatkichlarga yaqinlashtirish imkoniyatini beradigan yo'ldir. Yanada aniqrog'i bu yo'l «...eski, mustabid, ma'muriy-buyruqbozlik va o'ta markazlashgan taqsimot tizimidan voz kechib, butun dunyo yashayotgan, bozor iqtisodiyoti munosabatlari asosiga qurilgan tizimga o'tish, milliy davlatchilik boshqaruvini tashkil qilish, lo'nda qilib aytganda, demokratik davlat, fuqarolik jamiyati asoslarini, bozor iqtisodiyotini qurish» yo'lidir.

Aholini kuchli ijtimoiy himoyalash yuzasidan belgilangan strategik yo'l ijtimoiy siyosatimiz mazmun-mohiyatini belgilab berdi va so'shti o'n yilliqda har bir kirib kelayotgan yangi yilni turli nomlar bilan atalishi hamda ushbu yil nomlariga mos davlat dasturlarining ishlab chiqilishi, ro'yobga chiqarilishi ijtimoiy zaif, yordamga muhtoj qatlamlarni manzilli ijtimoiy himoyalash imkonini berdi.

Respublikamiz Prezidenti Konstitusiyaning 14 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimda so'zlagan nutqida ta'kidlaganidek: "Lo'nda qilib aytganda, qariyb o'n yil davomida e'lon qilingan yillarning barchasi o'zining ma'nomazmuni va ahamiyatiga ko'ra o'zaro chambarchas bog'lanib, mantiqan birbirini to'ldirib, aynan aholimiz manfaatlarini ta'minlashdek maqsadga xizmat qilib kslayotganini ko'rish va kuzatish qiyin emas".

I.A.Karimovning taklifi va tashabbusi bilan 2007 yilni "Ijtimoiy himoya yili" deb e'lon qilinishi hamda ushbu sohada davlat Dasturini ishlab chiqilishi, tasdiqlanishi<sup>2</sup> ijtimoiy himoyalash taraqqiyotimizning ustuvor strategik yo'li bo'lib qolayotganligidan darak beradi.

Mustaqillik tufayli mamlakatimizda ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar strategiyasi ishlab chiqilib, ro'yobga chiqarilmoqda. Ushbu jarayonda, jumladan, aholining, ayniqsa, uning ijtimoiy nochor qatlamlari manfaatlarining muhofaza qilinishiga alohida e'tibor qaratilmoqda. Zero, amalga oshirilayotgan islohotlardan ko'zlangan asosiy maqsad odamlar moddiy turmush darajasini yuksaltirish, ular farovonligini ta'minlashdan iboratdir. Shunday qilib, islohotlarimizning dastlabki bosqichlaridayoq inson manfaatlarini ta'minlash masalasi eng muhim zarurat sifatida belgilab olindi. Shuning uchun ham jamiyatning sifat jihatidan yangi holatga o'tishida bizga islohot chog'ida odamlar moddiy ahvoli keskin yomonlashadigai, axloqiy qadriyatlar, ma'naviy tayanchlar barbod bo'ladigan, o'tish davrining barcha qiyinchiliklari aholi yelkasiga tushadigan andoza maqbul emas edi.

Darhaqiqat, istiqlolga erishganimizdan keyingi o'tgan yillar mobaynida mamlakatimizda ijtimoiy himoya hamda ijtimoiy muhofazalash davlat organlari tizimi tamomila qayta qurildi, ijtimoiy himoyaning yangi shakllari joriy etilishi bilan birga uni amalga oshiruvchi davlat organlari vakolatlari qayta ko'rib chiqildi, bu sohadagi vakolatlarning muayyan qismi nodavlat tashkilotlariga, birinchi navbatda, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlariga o'tkazila boshladi. Bu

hol davlatimiz boshlig'i tomonidan ilgari surilgan "Kuchli davlatdan kuchli fuqarolik jamiyati sari" rivojlanish konsepsiyasiga to'la mos keladi.

Respublikamizda ijtimoiy himoya va ijtimoiy himoyaning "O'zbek modeli" hamda bozor munosabatlariga o'tish davri talablariga mos keladigan qonunchilik tizimi barpo kilindi. Endilikda bu tizimni zamon o'zgarishlari bilan hamohang ravishda takomillashtirishga qaratilgan tegishli tadbirlar amalga oshirilib kelinmokda. Mamlakatimiz rahbari haqli ravishda ta'kidlaganidek: "Davlat o'z aholisini ijtimoiy himoya qilgan taqdirdagina insonparvar hisoblanadi.

Kishilarni ijtimoiy himoyalash va uni kafolatlashning kuchli, ta'sirchan mexanizmi bo'lgandagina bozor iqtisodiyotiga sobitqadamlik bilan o'tishni ta'minlash, tarkibiy qayta qurishni amalga oshirish, ijtimoiysiyosiy barqarorlikni saqlagan holda ishlab chiqarish munosabatlarini tubdan isloh kushish mumkin".

Istiqlol qo'lga kiritilganidan keyingi o'tgan o'n yetti yillik davr tarixan qisqa muddat. Shunga qaramay, bu davr mobaynida aholini ijtimoiy himoyalash sohasida amalga oshirgan ishlarimiz, bu vazifani bajaruvchi davlat organlari tizimining vujudga keltirilishi va faoliyati, ijtimoiy muhofazaga oid qonunchilik bazasining yaratilishi va rivojlanish amaliyoti, uning muammolari, bu muammolar yechimini topish masalalari g'oyat dolzarbligi hamda muhimligi bilan jiddiy va har jihatdan chuqur ilmiy tadqiqot uchun mavzu bo'la oladi.

Mamlakatimiz taraqqiyoti natijasida hamda xalqaro hamjamiyatga integrasiyalashuv jarayonlarining kuchayishi tufayli ijtimoiygumanitar masalalarga qarashlarimiz astasekinlik bilan o'zgarib, avvalgi tushunchalar va yondashuvlar yangicha mazmunmohiyat kasb etib bormoqsa. Shu o'rinda bugungi kunda "ijtimoiy siyosat", "ijtimoiy himoya", "ijtimoiy kafolat" kabi tushunchalar hayotimizda sodir bo'layotgan ijobiy o'zgarishlarni tobora o'zida to'laroq ifoda etib borayotganligini alohida ta'kidlash lozim. Shu bilan birga, endilikda mamlakatimizda ijtimoiy siyosat jamiyat a'zolarining moddiy va ma'naviy ehtiyojlarini qondirish bilan bog'liq huquqiy, tashkiliy, iqtisodiy va boshqa

yo'nalishlarni o'zida kompleks mujassamlashtirgan davlat siyosati darajasida amal qilayotgan bo'lsa, ijtimoiy himoyalash siyosati davlat tomonidan aholini ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlarini moddiy jihatdan ko'llabquvvatlash, zarur infratuzilmani shakllantirish va ularning normal faoliyatini ta'minlash, bu sohaning samarali boshqaruvini amalga oshirish, fuqarolar uchun har tomonlama qulay yashash va mehnat sharoitlarini ta'minlab berishga qaratilgan choratadbirlar majmuasi sifatida namoyon bo'lmoqsa.

"Ijtimoiy himoya yili" davlat Dasturining qabul qilinishi va ruyobga chiqarilayotganligi, mavjud ijtimoiy himoya tizimlarida jiddiy o'zgarishlar amalga oshirilishiga asos bo'lmokda.

Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2007 yshv 19 martdagi "Aholini ijtimoiy himoya qilish tizimini yanada takomillashtirish va mustahkamlashga oid choratadbirlar to'g'risida"gi Farmoni qabul qilinishi, bu sohadagi davlat faoliyatini yanada takomillashtirishni nazardatutadi.

Hozirgi paytda ijtimoiy himoya faqat nochorbechoralarga yordam ko'rsatishdangina iborat bo'lib qolmay, balki fuqarolarning ish bilan ta'minlanganlik darajasini oshirish, mehnatinkng mikdori va sifatiga yarasha ish haqi to'lash, oqilona ijtimoiy jihatdan ta'minlash, ilm olish huquqlarini ro'yobga chiqarish, yuksak sifatli tibbiy xizmatlar ko'rsatish, insonning munosib turmush kechirishini ta'minlashning barcha jihatlarini qamrab olmokda.

Modomiki, yangy davlatchilik asoslari va tamoyillari shakllanishi jarayonida uning qonunlar tizimi tarkib topib borar ekan, jumladan, ijtimoiy himoya tizimi bilan bog'lkq huquqiy asoslar ham shakllanib bormoqda. Mamlakatimizda ijtimoiy himoyaning huquqiy asoslari Konstitusiyamizda va qator qonun hujjatlarida o'z ifodasini topgan. Bu yo'nalishda ham shakllanish, ham takomillashish jarayoni davom etmoqda.

Zeroki, Respublika Prezidenti I.D.Karimov ta'kidlaganidek: "...biz o'zimizning pirovard maqsadimizga erishish uchun zamon qanday tez va shiddat

bilan o'zgarayotganini hisobga olgan holda voqyealarning ortida emas, balki uning oldida yurishimiz, har qanday noxush harakat va muammolarning oldini olkshimiz, taraqqiyotimiz va demokratik yangilanish zaminini belgilab beradigan qonunlarni o'z vaqtida qabul qilishimiz, ularga hayot taqozo etayotgan o'zgartirish va qo'shimchalarni zarurligi bugun nechog'lik dolzarb zkanini anglash, tushunish qiyin emas".<sup>2</sup>

Bugungi kunga kelib jamiyat iqtisodiy va ijtimoiy hayoti o'rtasida eng maqbul nisbat belgilanishining ikki asosiy usuli qaror topdi.

Ulardan birinchisi radikal usul bo'lib, bunda ijtimoiy siyosatning barcha yo'nalishlari davlat tomonidan markazlashtirilgan tarzda amalga oshiriladi. Ijtimoiy siyosat bu usulda amalga oshirilishining afzal tomoni sifatida odamlarning ko'proq, to'liqroq himoyalanganligi, davlat bu sohadagi mas'uliyatni asosan o'z zimmasiga olganligi, kafolatlar darajasi birmuncha yuqori ekanligi ko'rsatib o'tilsada, ammo u o'zining serxarjligi, sun'iy tenglashtirishga qaratilganligi va shu tufayli ijtimoiy adolat tamoyillarining buzilishiga olib kelishi, soliqlar shaklidagi og'irlikni iqtisodiy faol aholi qatlamlari zimmasiga yuklab qo'yilishi kabi salbiy jihatlari bilan ajralib turadi va shu tufayli bozor munosabatlari qaror topgan jamiyatlarda bu usuldan foydalanish qiyin kechadi.

Ikkinchi usul hayotiy mushkulotlar uchun davlat mas'uliyati soqit qilinmagani holda aholi turmush darajasi, ijtimoiy jihatdan himoyalanganligi, insoniy huquqlarning kafolatlanishida ijtimoiy birdamlikka, adolatga, ijtimoiy himoya va qo'llabquvvatlashning muayyan muhtoj tabaqalarga aniq yo'naltirilganligi, ijtimoiy siyosatning amalga oshirilishida davlat mablag'lari bilan bir qatorda, jamiyat mablag'lariga, o'zaro yordam, xayriya mablag'lariga ham tayanilishi kabi xususiyatlari bilan tavsiflanishi mumkin.

---

<sup>2</sup> [www.gov.uz](http://www.gov.uz)

O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligini qo'lga kiritganidan keyingi yillar davomida yuritib kelinayotgan ijtimoiy siyosat rivojiga e'tibor berilsa, ana shu radikal usuldan ijtimoiy usulga astasekin o'tilayotganligini, birinchi usulga xos bo'lgan ijobiy jihatlar imkon darajasida saqlab qolinayotganligini kuzatish mumkin bo'ladi.

Har qanday jamiyatda ijtimoiy himoya tizimlarining barpo etilishi ma'lum ishlar amalga oshirilishini ko'zda tutadi. Bunda quyidagilar amalga oshirilishi lozim bo'ladi:

Oilaviy va shaxsiy daromadlarni nazorat qilish hamda baholash mexanizmlaridan foydalangan holda aholining ijtimoiy himoya va ko'makka muhtoj guruhlari ajratib olinadi;

Oilaning pul va natura holida oladigan daromadlari hisobga olinib, oila byudjetini aniqlash, shu orqali turmush darajasini, yordamga muxtojligiki aniqlash amalga oshiriladi.

Bunda ijtimoiy yordamning anik yo'naltirilganligini ta'minlash maqsadida eng kam iste'mol darajasi iste'mol dasturxonini aniqlanadi. Minimal turmush kechirish darajasi aniklanishida eng kam ta'minlangan oilalarning oziqovqat, ijtimoiy xizmatlar va boshqa buyumlarga bo'lgan kundalik eng zarur talablari asos qilib olinadi.

Sobiq Ittifoq tarkibiga kiruvchi ba'zi mustaqil davlatlarda turmush kechirishning eng kam darajasi, zaruriy iste'mol dasturxonini noto'g'ri, haqiqiy ahvolga mos kelmaydigan tarzda aniqlanayotgashshgi yoki bu ko'rsatkich umuman ishlab chiqilmaganligi tufayli odamlar real turmush darajasini xolis baholash imkoni mavjud emas:

3) Ijtimoiy yordam va himoya berish usulining to'g'ri belgilanishi, ya'ni bunday yordamlarni pul holida, natural ko'rinishida yoki ijtimoiy imtiyozlar va afzalliklar shaklida berilishining to'g'ri tanlanishi muhim ahamiyatga ega.



XXI asrdagi ijtimoiy taraqqiyotning asosiy xususiyatlari muhokama qilingan va 1995 yil Kopengagenda bo'lib o'tgan Oliy darajadagi uchrashuvlar yuzasidan qabul qilingan Umumjahon Deklarasiyasida qayd etib o'tilganidek, XXI asr iqtisodiyot inson manfaatlariga yo'naltirilganligi ta'limotiga tayanishi bilan ajralib turadi.

Strategik jihatdan olganda, inson omiliga tayanilishi, unga kapital sarflanishi kapital sarflashning eng sermahsul, eng rasional usuli sanaladi. Chunki insonga, uning moddiy turmush darajasiga e'tibor berilayotgan davlatlarga iqtisodiy yuksalishga erishmoqsa, ularda mehnat unumdorligi yuqori bo'lmoqda, jamiyat farovonlikka erishmoqda. Aksincha, inson ahamiyati pasaytirilayotgan, uning turmush kechirish darajasi past bo'lgan davlatlar, qashshokdar yashaydigan davlat qashshoq davlatligicha qolmoqda va bu hamma narsani odamlar hal qiladi degan qadimiy koidaning to'g'ri ekanligini, inson omili hisobga olinmaydigan davlatning taraqqiy topa olmasligini isbotlamoqda.

O'zbekiston Respublikasi siyosiy va iqtisodiy mustaqilligini qo'lga kiritganidan keyin davlat va jamiyatning muhim funksional faoliyat olib borish sohalaridan biri sifatida ijtimoiy himoya tizimlari astasekinlik bilan shakllantirila boshlandi. Mustaqillikning dastlabki yillarida ijtimoiy himoya siyosati huquqiy asoslari sifatida, sobiq Ittifoq davrida qabul qilingan qonunlardan foydalanilgan bo'lsada<sup>1</sup>, ammo sekinastalik bilan, bosqichmabosqich tarzda bu sohadagi o'z milliy qonunchiligimiz shakllantirila boshlandi. Dastlabki davrlarda bu O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmonlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlari shaklida amalga oshirilgan bo'lsa, keyinchalik ushbu masalalarga oid maxsus qonunlar qabul qilindi va ijtimoiy himoya tizimlari milliy qonunchilik asosida rivojlantiridi.

Respublikamizda ijtimoiy himoya va uning huquqiy tizimlari barpo etilishi shartli ravishda bir necha bosqichlarga bo'linishi mumkin hamda bu bosqichlar

mamlakatimizning mustaqillik yillaridagi taraqqiyoti davri xususiyatlarini o'zida obyektiv tarzda aks ettiradi.

Bu bosqichlar quyidagicha taqsimlanadi:

Birinchi bosqich. Mamlakat mustaqil deb e'lon qilingan 1991 yil 31 avgustdan O'zbekiston Respublikasining Konstitusiyasi qabul qilingan 1992 yil 8 dekabrgacha bo'lgan davrni o'z ichiga oladi.

Bu davr mustaqil davlat organlari, shu jumladan, ijtimoiy himoyani amalga oshirish sohasidagi davlat organlari, ular kundalik faoliyatining huquqiy asoslari shakllantirilishi davri ekanligi bilan, sobiq Ittifoq davridagi davlat tuzilmalari o'z faoliyatini amalga oshirishda davom etayotgan, sobiq Ittifoq qonunchilik hujjatlari amal qilib turganligi bilan, ayni paytda davlatchilikning milliy tizimlari tez sur'atlar bilan barpo etilayotgan, yangiyangi farmonlar, qarorlar qabul qilinayotgan davr ekanligi bilan tavsiflanadi.

Ikkinchi bosqich. O'zbekiston Respublikasining 1992 yil 8 dekabrda yangi mustakil davlat sifatidagi Konstitusiyasi qabul kilingan sanadan boshlagan va taxminan 1994 yilning o'rtalarigacha davom etgan ikkinchi bosqich yangi konstitusiyaviy zaminga tayanilgan holda davlat va huquq tizimlarini qaytadan shakllantirila boshlanganligi, pensiya himoyai sohasida milliy qonunning qabul kilinishi, ijtimoiy himoyani sun'iy tenglashtirilgan holda amalga oshirilishidan tobora aniq yo'naltirilgan ko'rinishga ega bo'lib borayotganligi, zaif aholi qatlamlari ijtimoiy himoyasini astasekin kuchaytirila borishi bilan diqqatga sazovordir.

Uchinchi bosqich. 1994 yilning ikkinchi yarmidan 2001 yilgacha bo'lgan vaqg oralig'ini qamrab olgan. Bu davrda ijtimoiy himoya sohasidagi qonunchilik tizimlari asosan barpo etib bo'lindi; aniq yo'naltirilgan ijtimoiy himoyalash tizimlari va mexanizmlari yaratildi; ijtimoiy himoyani amalga oshirish manbalari sanaluvchi moliyaviy mablag'lar, ularning shakllantirilishi, sarflanishi sohasidagi

davlat va jamiyat tizimlari yuzaga keltirildi hamda ularni bir maromda ishlashligi ta'minlandi.

To'rtinchi bosqich. Bu bosqich 2000 yil oxirlaridan boshlagan bo'lib, bugungi kunda ham davom etib kelmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2000 yil 15 noyabrdagi «O'zbekiston Respublikasida pensiya himoyai tizimlarini takomillashtirishga oid choratadbirlar haqida»gi qarorining qabul qilinishi va shu asosda pensiya jamg'armasining tizimlari qayta tashkil etilishi, yakka tadbirkorlar va yakka dehqon xo'jaliklari pensiya himoyai masalalarining soddalashtirilishi, aholini ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlarini aniq yo'naltirilgan tarzda qo'llabquvvatlashning 20022003 yillarga mo'ljallangan hukumat dasturining qabul qilinishi va ro'yobga chiqarilishiga qaratilgan qonun hujjatlarining qabul qilinishi, ijtimoiy yordam oluvchi fuqarolar doirasining kengaytirilishi hamda moddiy yordam miqdorlarining ko'paytira borilishi kabilar ushbu bosqichning o'ziga xos xususiyatlaridan sanaladi.

Zeroki, Respublikamiz Prezidenti I.A. Karimov mustaqil taraqqiyotimiz tongida ta'kidlaganidek: bizga islohot chog'ida odamlar moddiy ahvoli keskin yomonlashadigan, axloqiy qadriyatlar, ma'naviy tayanchlar barbod bo'ladigan, o'tish davrining butun qiyinchiliklari aholi yelkasiga tushadigan andoza maqbul emas"1. Mamlakatimizda islohotlar amalga oshirilar ekan, uning asosiy shiori Prezident I.A. Karimov ko'rsatganidek: "Yaqin uch yilda ish haqini 22,5 barobar oshirish bo'yicha o'z oldimizga qo'ygan strategik vazifaga muvofiq, 2007 yilda ish haqi, pensiya, stipendiya va nafaqalar miqdori 1,5 barobar ko'paytirildi. 2007 yilning dekabrda o'rtacha oylik ish haqi, xo'jalik subyektlari va byudjet sohalarini hisobga olganda, 210 AQSh dollari miqdoriga teng bo'ldi.

2006 yildan boshlab umumtalm maktablari o'qituvchilari va shifokorlar mehnatiga haq to'lashning yanada takomillashtirilgan tizimi joriy etildi. Natijada

keyingi ikki yilda ularning ish haqi miqsoni tegishli ravishda 2,8 va 2,7 barobar oshirildi.

Aholining real pul daromadlari bir yilda 27 foizdan ziyod ko'paydi. Statistika idoralari ma'lumotlariga ko'ra, 2001 yilda mehnatga layoqatli aholnikng o'rtacha ksh xaqi kun kechirish uchun minimum darajada zarur bo'lgan mablag'ning 99 foizini tashkil etgan bo'lsa, 2007 yklda bu ko'rsatkich 3 barobardan ko'proq oshdi. Ta'kidlash joizki, bu raqam Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi mamlakatlari o'rtasida yuqori ko'rsatkichlardan biri hisoblanadi.

## **II- Bob. O'zbekiston Respublikasida aholini ijtimoiy himoyalashning qonunchilik asoslari va tabaqaviy jihatlari.**

### **1&. Davlat va nodavlat tashkilotlar tomonidan ijtimoiy himoyaning amalga oshirilishi.**

Aholini ijtimoiy jihatdan himoyalashni kuchaytirish, «Aholining ijtimoiy himoya qilinishini ta'minlashga yo'llanayotgan byudjet mablag'laridan ular aholini ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlariga yo'naltirilganligini kuchaytirishni nazarda tutgan holda foydalanish samara-dorligini oshirish»<sup>3</sup>, «Aholini ijtimoiy muhofaza qilishni kuchaytirish, oila manfaatlarini ta'minlash, ayollar mavqeyini oshirish, sog'lom avlodni shakllantirish bo'yicha amalga oshirilgan umumdavlat chora-tadbirlari Respublikadagi ijtimoiy-demografik vaziyatni sezilarli darajada yaxshilash imkonini berdi. Oila instituti mustahkamlanmoqda, chaqaloqlar o'limi

---

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 2001 yil 6 dekabrda «Aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlarini aniq yo'naltirilgan tarzda qo'llab-quvaatlashning 2002-2003 yillarga mo'ljallangan dasturi to'g'risida»gi qarori. Xalq so'zi, 2001 yid, 13 dekabr.

<sup>3</sup> O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maqkamasining 2002 yil 25 yakvardagi «Ayollar va o'sib kelayotgan avlod sog'lig'ini mustahkamlashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi qarori.

kamaymoqsa, tug'ruq yoshining tarkibi yaxshilanmoqda, aholining uzoq umr ko'rish darajasi o'smoqda»<sup>4</sup>.

Bularning barchasi ushbu sohadagi davlat siyosatining izchil ro'yobga chiqarilayotganidan nishonadir.

Aholiga beriladigan ijtimoiy yordam va ijtimoiy qo'llab-quvvatlash yo'nalishlaridan biri - ularga yayensiya va nafaqalar berishdan tashqari, boshqa shakllardagi yordamlar ko'rsatilishidan kborat. Pensiya va nafaqalardan boshqacha ijtimoiy yordam ko'riishlari xilma-xil bo'lib, Nsoddiy yoki boshqa nomoddiy shakllarda amalga oshirilishi mumkin. Yuqorida ta'kidlanganidek, hozirgi daytda aholining muhtoj qatlamlari o'nlab turdagi ijtimoiy yordam-larni olmoqdalar, yuzdan ortiq shakldagi har xil imtiyoz-lardan foydalanmoqdalar va ana shu maqsadlar uchun davlat xazinasidan milliardlab so'm mablag' sarf qilinmoqda.

Bunday yordamdan foydalanuzchi fuqarlar orasida qariyalar, yosh bolalar, bolali oilalar, kogironlar yetakchi o'rinni tutmoqda.

Aholining muhtoj tabaqalariga ko'rsatiladigan yordam-larki aniq tavsiflash va to'g'ri tasniflash, har bir ijti-moiy yordam ko'rsatish shaklkni, mazmun-mohiyatkni, maqsad-vazkfasini, roli-o'rnini aniq tasavvur etish bunday yordamni ko'rsatksh bilan bevoskta shug'ullanayottan shaxslar uchun, bu sohada faoliyat yurituvchi mutaxassis-kadrlar uchun muhim amaliy ahamiyatga ega. Bunday yordamlarning siyosiy mohiyati va huquqiy asoslaridan yaxshi xabardor bo'lish hamda ularnk to'g'ri tushuzvib yetish, uni o'z vaqtida, to'la hajmda tegishli shaxslarga yetkazilishini ta'minlaydi, ijtimoiy adolat va qonunchilik tamoykllarinkng mustah-kamlanishiga xizmat qiladi.

Pensiya va nafaqalardan boshqa shakllardagi ijtimoiy yordamdan fokdalankshga haqli bo'lgan shaxslar tokfalari xilma-xil, doirasi juda keng bo'lkb,

ular qatoriga qariya-lar, nogironlar, boquvchisiz qolgan fuqarolardak tashqari, yolg'iz keksa va yolg'kz nogironlar, ko'p bolali va kam ta'mynlangan oklalar, maktab o'quzchnlari, urush qatnashchi-lari va boshqa shaxslar kiradilar.

Aholining ushbu tabaqalariga berkladigak ijtkmoky yordam shakllari ham rang-barang ko'rknishlarga ega bo'lib, ularni quyidagi turlarga bo'lish mumkkn:

1) qariyalar, nogironlar va bolalarni davlat ta'mino-tiga olksh, maxsus muassasalarda yashashlarini ta'miilash;

2) yolg'iz kariyalarga uylarida kjtimoiy yordam ko'rsatish va zarur oziq-ozhat mahsulotlari bilan bepul ta'minlash;

3) kariyalar, nogironlarga sanatorky-kurort xizmat-larini ko'rsatish;

4) nogiron fuqarolarga protez-ortopediya, harakatla-nish vosktalari berish xizmatlarini ko'rsatish;

5) maktab yoshidagi bolali oilalarga moddky va boshqa yordamlar ko'rsatish;

6) fuqarolarning muayyan toifalariga turar joy-maipgiy, transport-aloqa, soliq, tibbiy-farmasevtika va boshqa sohalarda imtiyozlar berish;

7) qonun hujjatlarida iazarda tutilgan boshqa turdagi ijtimoiy xizmatlarni ko'rsatish.

Aholining muayyan toifalariga ko'rsatiladigan ijti-moiy xizmatlar va beriladigan imtiyozlar iqtisodiy tu-iguncha sifatida davlat va jamiyat tomonidan ushbu maqsad-lar uchun ajratiladigan mablag'larni sarflanishidan iborat bo'lsa, yuridik tushuncha sifatida u fuqarolarga Konstitusiyaga muvofiq berilgangan ijtimoiy yordam olish huquqlarini amalga oshirilishidan iboratdir.

Bozor iqtisodiy munosabatlari kuchayib va chuqurlashib borayotgan, boqimandalik kayfiyatlariga barham berilayot-gan sharoitda nochor va teng

raqobatlashishga qodir bo'lmagan aholi tabaqalarini real ijtimoiy himoya qilinishi muhim ahamiyatga egadir.

Yolg'iz qariyalar, yolg'iz nogironlar va ota-ona parvarishvandan mahrum bo'lgan bolalarni davlat ta'minotiga olish

Yolg'iz qariyalar, kimsasiz nogironlar, yetim bolalar haqida amalda g'amxo'rlik qilish ahvoriga qarab jamiyat-nikg, uning a'zolarining, davlatning madaniy hamda ma'naviy-axloqiy saviyasiga baho beriladi va ushbu ko'rsatkichlar insonparvarlik darajasini belgilovchi muhim mezonlardan hisoblanadi.

Mamlakatimizda ana shu tamoyillarga amal qilingani holda qariyalar, nogironlar, yetim-yesirlar haqida alohida g'amxo'rlik qilib kelinmoqda. 2002 yilni «Qariyalarni qadrlash yili» deb e'lon qilinishi, avvadgi yillarning nogironlar, ayollar, bolalarga bag'ishlanganligi hamda shu munosabat bilan zarur dazlat dasturlari ishlab chiqilib, hayotga tatbiq etib kelinayotganligi davlatimiz va jamiyatimizda inson va uning manfaatlari oldingi o'rinlarda turishini ko'rsatadi.

Bugungi kunda Respublikamizda ko'plab «Saxovat uylari», «Mehribonlik uylari», «Muruvvat uylari» faoliyat ko'rsatib kelmoqda va ularda bir necha o'n minglab nochor fuqarolar davlat mehr-muruvvatidan bahramand bo'lmoqsalar.

Internat va pansionatlar parvarishga va tibbiy xizmat ko'rsatishga muhtoj bo'lgan yolg'iz qariyalar hamda nogironlarning doimiy yashashga mo'ljallangan tibbiy-ijtimoiy muassasalar bo'lib, ularning har xil turlari mavjud.

Qariyalar uyi yoki nogironlar uyiga joylashtirishga muhtoj bo'lgan fuqarolarni aniqlash, hisobga olish va ushbu muassasalarga yo'llab joylashtirish vazifasi tuman (shahar) ijtimoiy ta'minot bo'limlari zimmasiga yuklangan. Shuningdek, o'z hududida joylashgan internat uylarining faoliyatiga ko'maklashish va ularning ishini nazorat qilish ham ijtimoiy ta'minot bo'limlari tomonidan amalga oshiriladi.

Qariyalar va nogironlar uylari respublika yoki mahalliy byudjet mablag'lari hisobidan ta'minlanishi mumkin va ular yuridik shaxs sanaladi.

Internat uyiga hamda mehnat va urush faxriylari pansionatlariga 60 yoshdan oshgan erkaklar, 55 yoshdan oshgan ayollar, 18 yoshdan katta bo'lgan 1-P guruh nogironlari qabul qilinadi. Surunkali ruhiy kasal bo'lgan shaxslar ruxiy-asab internat uylariga joylashtiriladilar.

Bolalar internat uylariga 4 yoshdan 17 yoshgacha akli zaif yoki jismoniy yetuk bo'lmagan bolalar qabul qilinadi.

Internat uylariga qabul qilish asos va tartiblari qonun hujjatlari bilan belgilab qo'yilgandir.

Internat uyida yashovchi va to'liq davlat ta'minotida bo'lgan fuqarolarga (ruhiy-asabiy kasalliklar internati-dan tashqari) internat uyidagi xarajat bilan pensiyasi o'rtasidagi farq to'lanadi, ammo pensionerga to'lanadigan summa uning pensiyasining 10 foizidan, urush nogiron-lariga esa 20 foizidan kam bo'lmasligi lozim.

Internat uyida yashayotgan fuqarolar tegishli asoslar va tartiblarda bu yerdan chiqarilishlari mumkin. Internat uyidan chiqarilgan fuqarolarni joylashtirish va ta'minotini amalga oshirish ijtimoiy ta'minot bo'limlariga yuklatilgan.

Internat uylariga odatda yordamga muhtoj va qonun bo'yicha ta'minlash va parvarishlashga majbur bo'lgan yaqin qarindoshlari yo'q fuqarolar joylashtiriladi. Ammo to'lov-kontrakt asosida yaqin qarindoshlari mavjud bo'lgan fuqarolar ham bu yerga joylashtirilishlari mumkin.

Pensionerlar va nogironlarni sanatoriy-kurortlarga yuborish orqali davolash, salomatliklarini muntazam nazorat qilib turish - ularga ko'rsatiladigan ijtimoiy yordamning asosiy tarkibiy qismini tashkil qiladi.



O'zbekiston Respublikasining 1996 yil 29 avgustdagi «Fuqarolar sog'lig'ini saqlash to'g'risida»gi qonunining 21-22-modsalarida pensioner va nogiron bo'lib qolgan fuqarolar zarur tibbiy-ijtimoiy yordamni olish huquqiga, shu jumladan sakatoriy va dam olish uylarida sog'lomlash-tirish xizmatidan foydalanishga haqli ekanliklari ko'rsatib qo'yilgan.

Pensionerlar va nogironlarni sanatoriy-kurortlar, dam olish uylariga yuborish asoslari, muddatlari, tartib-lari O'zbekiston Respublikasi Ijtimoiy ta'minot vazirligining 1993 yil 8 iyuldagi buyrug'i bilan tasdiqlangan bo'lib, unda barcha pensionerlar har ikki yilda, urush qatnashchisi bo'lgan nogironlar esa har yili bepul yo'l-ulanma bilan sanatoriy-kurortlarga yuborilish huquqiga ega ekanliklari belgilab qo'yilgan.

O'zbekiston Respublikasida yashovchi fuqarolarni protez buyumlari, ortopediya poyafzali va boshqa protez-ortopediya ashyolari bilan ta'minlash tartibi, shartlari va muddat-lari O'zbekiston Respublikasi Ijtimoiy ta'minot vazirligi tomonidan 1994 yil 17 fevraldagi buyruq bilan ta'minlangan shu haqdagi yo'riqnoma bilan belgilab qo'yilgan.

Ushbu yo'riqnomaga ko'ra protez-ortopediya buyumlari tegishli tibbiy muaseasalar yo'llanmasi va xulosasi asosida fuqarolarga protez-ortopediya korxonalarini tomonidan bepul (tegishli hollarda pul to'lanishi orqali) tayyorlab berilishi yoki savdo korxonalarini (tibbiyot savdo shoxobcha-lari) orqali sotilishi belgilab ko'yilgan.

Fuqarolarni protez-ortopediya buyumlari bilan ta'minlash ijtimoiy ta'minot bo'limlariga yuklatilganligi va ular tomonidan ta'minot amalga oshirilishi ham qayd etib o'tilgan,

Nogironlarni qo'lda boshqariladigan avtomobillar va motokolyaskalar bilan ta'minlash masalalari O'zbekiston SSR Ministrlar Sovetining 1977 yil 3 martdagi qarori (unga 1981 yil 11 mayda o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilgan) bilan tartibga solinadi.

Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasi Ijtimoiy ta'minot vazirining 1994 yil 29 sentyabrdagi buyrug'i bilan «O'zbekiston Respublikasidagi nogironlarni harakat vositalari (velokolyaska, kreslokolyaska va kichik gaba-ritli kolyaskalar) bilan ta'minlash tartibi tasdiqlangan bo'lib, unga ko'ra tegishli Tibbiy-mehnat ekspertlar komissiyasining xulosasiga muvofiq nogironlar ijtimoiy ta'minot bo'limlari tomonidan tegishli ro'yxatlarga ko'ra harakatlanish vositalari bilan ta'minlanishlari aytilgan.

Mazkur tartibga ko'ra urush nogironlari, urushda halok bo'lgan shaxslarning oila a'zolari, ChAES halokati tufayli I-II guruh nogironi bo'lganlar, 18 yoshga to'lmagan o'quvchi nogironlar va boshqa ayrim toifadagi nogironlar harakat vositalari bilan bepul ta'minlanishlari yoki imtiyozli narxlarda ta'minlanishlari, boshqa fuqarolar esa tegishli pulini to'lash orqali ta'minlanishlari, harakat vositalarini ta'mirlab berish, yangilash shartlari va tartiblari belgilab qo'yilgan.

Ijtimoiy yordamning bu turi avvaldan turli shakllarda (bepul tushliklar berish, o'quv darsliklari bilan bepul ta'minlash, kiyim-kechak bilan ta'minlash va hokazo) avvaldan ham fuqarolarga ko'rsatib kelinar edi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2002 yil 25 yanvardagi «Aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlarini aniq yo'naltirilgan tarzda qo'llab-quvvat-lashning 2002-2003 yillarga mo'ljallangan dasturini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarori qabul qilinishi bilan ushbu sohada yanada ijobiy o'zgarishlar ro'y bera boshladi.

Qarorga ko'ra 2002 yil 1 sentyabrdan boshlab kam ta'minlangan oilalarning o'rta umumta'lim maktablarining barcha sinflarida o'qiyotgan o'quvchi-bolalari bepul qishki kiyim-bosh to'plami bilan ta'min etilishlari belgilandi.

Ushbu qarorga ko'ra o'rta umumta'lim maktablarining barcha sinflarida o'qiydigan kam ta'minlangan oilalarga mansub o'quvchilarning 2002 yilda 75 foizi, 2003 yil 1 sentyabrdan boshlab 100 foizi bepul darsliklar bilan ta'minlanishlari nazarda tutildi.

Yetim bolalar va ota-onadan qarovsiz qolgan to'liq davlat ta'minotidagi (bolalar uylaridagi) bolalarni ijtimoiy himoya qilish maqsadida ular umumta'lim maktablarini bitirib chiqayotganlarida kiyim-bosh, poyafzal sotib olish uchun 2002 yilda eng kam ish haqining 80 barobari, 2003 yilda esa 100 barobari miqdorida bir yo'la nafaqa berish nazarda tutildi.

Chaqaloqlar uyidan chaqaloqlarni farzandlikka, tarbisiga (patronat) olgan tutingan ota-onalarga har bir chaqaloq uchun eng kam ish haqining 3 barobari miqdorida har oylik nafaqa berish belgilab qo'yildi.

Aholini ijtimoiy himoyalash va qo'llab-quvvatlash maqsadida ularga keng qatlamli imtiyozlar berish ko'zda tutilgan. Bu imtiyozlar ulardan foydalanishga haqli bo'lgan shaxslar doirasiga, imtiyoz turlari va ularning ijtimoiy mohiyatiga hamda boshqa xususiyatlariga ko'ra guruhlarga ajratilishi mumkin. Davlat byudjeti hisobidan fuqarolarga beriladigan ijtimoiy yordamni amalga oshirish shakli sifatida ular fuqarolar kundalik turmushida muhim o'rin tutmokda. Shuni aytish kifoyaki, bugungi kunga kelib imtiyoz va yengilliklarning umumiy soni yuzdan ortiq shaklda amalga oshirilmoqda.

Ijtimoiy qo'llab-quvvatlash maqsadidagi imtiyozlar va yengilliklardan foydalanish huquqiga ega bo'lgan shaxslar doirasi pensionerlar, kogironlar, yolg'iz qariyalar, ko'p bolali va kam ta'minlangan oilalar bilan-gina cheklanib qolmasdan, ijtimoiy ahamiyati katta bo'lgan muayyan kasb va vazifalarda band bo'lgan shaxslarni (pedagoglar, vrachlar va boshqalar) hamda boshqa toifadagi fuqarolarni ham o'z ichiga qamrab olgandir.

Imtiyoz va yengillik berilishi obyektlari ham xilma-xil bo'lib, turar joy-kommunal xizmatlar, tibbiy xizmatlar, farmasevtika ta'minoti, transport-aloqa xizmati, soliq va boj to'lovlari kabilarni o'z ichiga olgan.

Imtiyoz va yengilliklar hajmi turli toifadagi fuqarolar uchun turlicha belgilangan bo'lib, bunda uning dazlat va jamiyat oldidagi xizmati, moddiy-ijtimoiy ahvoli va boshqa ko'rsatkichlar e'tiborga olingan.

Imtiyozlardan foydalanish asoslari va shartlari ham turlicha bo'lib, fuqaroning avvalgi davrdagi xizmati, avvalgi davrdagi yoki bugungi kunda bajarib kelayotgan vazifasi, oilaviy ahvoli kabilardan iborat bo'lishi mumkin.

Imtiyoz va yengilliklardan foydalanishning umumiy tartibiga ko'ra imtiyozdan foydalanish huquqiga ega bo'lgan fuqaro yoki oila shunday imtiyoz yoki yengillikni berishi lozim bo'lgan dazlat yoki jamoat organiga, korxon-tashkilotga yozma ariza bilan murojaat qilishk hamda imtiyozdan foydalanish huquqini tasdiqlovchi zarur hujjatlarni taqsim etishi lozim.

Imtiyozdan foydalanij huquqi bekor bo'lganida yoki o'zgarganida foydalanuvchi shaxs bu hakda belgilangan muddat ichida imtiyoz beruvchi organi, tegishli hollarda -boshqa organlarni xabardor qilib qo'yishi shart.

Soxta hujjatlar asosida yoki noto'g'ri ma'lumotlar taqdim etgan holda imtiyozdan foydalanayotgan shaxslar qonun hujjatlariga muvofiq ma'muriy yoki jinoiy javobgarlikka tortiladilar hamda noto'g'ri berilgan imtiyoz tarzidagi zararlar ulardan to'liq undirib olinadi.

Yolgiz sariyalar va nogironlar hamda pensionerlarga ijtimoiy yordamlar ko'rsatish. O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2000 yil 23 fevralda davlat ro'yxatiga olingan yolg'iz qariyalar, pensionerlar va nogironlarga ijtimoiy yordamlar ko'rsatish tartibi asosida amalga oshiriladi.

Yolg'iz qariyalar, pensionerlarni va nogironlarni tuman ijtimoiy ta'minoti bo'limlari tomonidan hisobga olinish mezonlari hamda hisobga olish tartiblari, ularga ijtimoiy yordamlar ko'rsatish masalalari mazkur tartibda belgilanadi. Ularga ko'rsatiladigan ijtimoiy yordamning turlari va hajmlari mintaqaviy (shahar), tuman miqyosi-dagi, dasturlarga muvofiq belgilanadi.

Yolgiz pensionerlarni asosiy ozis-ovsat mahsulotlari bilan bepul ta'minlash masalalari O'zbekiston Respubli-kasi Adliya vazirligi tomonidan 1999 yil 15 fevralda davlat ro'yxatiga olingan «O'zgalar parvarishiga muhtoj yolg'iz

pensionerlarni asosiy oziq-ovqat mahsulotlari bilan bepul ta'minlash to'g'risida»gi nizomga binoan tartibga solingan bo'lib, unga ko'ra boshqalar parvarishiga muhtoj bo'lgan yolg'iz qariyalar quyidagi asosiy oziq-ovqat mahsulotlari bilan bepul ta'minlanadilar:

- un;
- o'simlik yog'i;
- makaron mahsulotlari;
- guruch;
- choy;
- tuxum;
- qand-shakar;
- kir yuvish vositalari;
- go'sht.

Yolg'iz va o'zgalilar parvarishiga muhtoj bo'lgan fuqaro-larni aniqlash belgilangan tartiblarga muvofiq fuqaro-larning o'zini o'zi boshqarish organlari tomonidan tuman (shahar) ijtimoiy ta'minot organlari bilan birgalikda amalga oshiriladi va bunga yolg'iz pensionerning arizasi, TMEK yoki VKKning pensioner o'zgalilar parvarishiga muhtoj ekanligi haqidagi ma'lumotnoma, turar joydan ma'lumotnoma; yolg'iz pensioner turmush sharoitlarini o'rganish dalolatnomasi asos bo'lib xizmat qiladi.

O'zgalilar yordamiga muhtoj yolg'iz pensionerlarga ijtimoiy yordamning ushbu turini ko'rsatish tartiblari, muddatlari aniq belgilab qo'yilgan.

Aniq maqsadli kommunal uy-joy fondidan turar joy olish hukusiga ega bo'lish sohasidagi imtiyozlar O'zbekiston Respublikasining uy-joy kodeksi hamda uning asosida qabul qilingan boshqa qonun hujjatlariga asosan beriladi.

O'zbekiston Respublikasining Uy-joy kodeksi 40-moddasiga binoan: «Aniq maqsadli kommunal uy-joy fondidan turar joy olish huquqiga uy-joy sharoitlarini

yaxshilashga muhtoj bo'lgan va turar joy olish uchun hisobda turgan ijtimoiy jihatdan himoyalangan; kam ta'minlangan fuqarolar egadirlar. Aniq maqsadli kommunal uy-joy fondidan turar joy olish huquqiga ega bo'lgan fuqarolar toifalari O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasini tomonidan belgilanadi».

Tibbiy xizmat ko'rsatish va dori-darmon vositalari bilan ta'minlash yuzasidan imtiyozlar. O'zbekiston Respublikasining «Fuqarolar sog'lig'ini saqlash to'g'risida»gi qonuni<sup>5</sup> (qonunning 17-moddasi) hamda uning asosida qabul qilinadigan me'yoriy hujjatlarga binoan beriladi<sup>6</sup>.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1997 yil 2 dekabrda 532-sonli «Davolash profilaktika muassasalarini moliyaviy ta'minlash tizimlarini takomillashtirish to'g'risida»gi qaroriga ko'ra bu sohada imtiyozlar qayta ko'rib chiqildi.

Yuqoridagi qonun hujjatlariga ko'ra imtiyozlar dori-darmon vositalarini aholining muayyan toifalariga bepul berish yoki narxiga nisbatan muayyan foizlarda chegirma qilish yo'li bilan sotish, tibbiy muassasalarda xizmat ko'rsatish haqlaridan to'liq yoki qisman ozod qilish tarzida berilishi mumkin.

Ushbu sohada imtiyozlarni berish shartlari, tartiblari va muddatlari yuqorida eslatilgan qonun hujjatlari bilan belgilab qo'yilgan. Shuningdek, ularda bu imtiyozlardan foydalanishga haqli fuqarolar toifalari ham aniq ko'rsatilgan.

Fuqarolarga ularni ijtimoiy himoya qilish maqsadida solis sohasida imtiyozlar berish.

---

O'zbekistonning yangi konunlari, №14, -T.: Adolat, 1997. 40-bet.

<sup>5</sup> O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1994 yil 8 yanvardagi «Aholini dori-darmon vositalari bilan ta'minlashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi qarori va boshqa qarorlar

O'zbekiston Respublikasining "Soliq kodeksi"da<sup>7</sup> hamda uning asosida qabul qilingan boshqa me'yoriy huquqiy hujjatlarda<sup>8</sup> nazarda tutib qo'yilgan.

Jumladan, O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksida jismoniy shaxslarning soliq solinmaydigan daromadlari turlari hamda soliq solishdan ozod qilingan daromadlari doirasi belgilab qo'yilgan.

Ushbu kodeksga ko'ra, fuqarolarga mol-mulk solig'i sohasidagi imtiyozlar, yer solig'i solish yuzasidan beriladigan imtiyozlar berish nazarda tutilgan.

Soliq va boshqa majburiy to'lovlar (yig'implar) yuzasidan fuqarolarga berilgan imtiyozlardan foydalanish shartlari, tartiblari hamda muddatlari soliqlarni hisoblab chiqish va to'lashga oid bo'lgan tegishli yo'riqnomalar bilan belgilab qo'yiladi.

xayri-ehson va muruvvat yordami ijtimoiy himoya shakli sifatida

Muruvvat va xayri-ehson yordami va uning tavsifi

Jamiyatda bozor munosabatlari prinsiplari va qoidalarini amal qila boshlaganligi yaratiladigan boyliklarni taqsimlash chog'ida qattiq talablar qo'yilishiga, boqimandachilik kayfiyatlariga nisbatan toqatsiz vaziyatni yuzaga kelishiga sabab bo'lmoqda. Bunday holat jamiyatning yordamiga muhtoj, ijtimoiy yaxshi himoyalangan a'zolarini (birinchi navbatda yolg'iz nogironlar va yolg'iz qariyalar, qarovchisiz qolgan yosh bolalar) davlat mablag'lari bilan bir qatorda turli nodavlat tashkilotlari, tijorat tuzilmalari, savob talab xususiy shaxslar, chet el homiylik tashkilotlari moliyaviy-mulkiy yordamlari hisobidan ko'shimcha ravishda qo'llab-kuvvatlashlikni, ana shunday homiylik va mehr-muruvvat

---

O'zbekiston Respublikasining Solik kodeksi. O'zbekiston Respublikasi Qonun xujjatlari to'plami, 2007 y. 52 maxsus son.

<sup>7</sup> O'zbekiston Respublikasi Hukumatining qarorlari to'plami, 2002 yil, 3-son

ko'rsatish faoliyatlarini rag'batlantirish, bunday ko'mak manbalarini faol qidirib topish, ushbu hayrli va savobli ishga jalb etishlikni tobora ko'proq taqozo etmoqda.

Mustaqilligimiz ko'lga kirganidan keyingi yillar davomida xorijiy davlatlar, xorijiy yuridik va jismoniy shaxslar, turli xalqaro muruvvat tashkilotlaridan mamlakatimizga gumanitar yordamlar ko'rsatish kuchaydi, bunday yordam oqimlari tobora ko'payib bormoqda. Shuningdek, mamlakatimizning o'zidagi tadbirkorlar, muruvvatli insonlar tomonidan beva-bechoralarga turli-tuman yordamlar ko'rsatilishi ham asta-sekin keng rusum bo'lib bor-moqda.

Ana shunday sharoitda xayri-ehson, mehr-muruvvat yordami ko'rsatilishini hukukiy jihatdan tartibga solinishi, bu sohada konuniylikni ta'min etilishi, ijtimoiy adolatni qaror topdirilishi bugungi kunning eng dolzarb vazifalaridan biriga aylanib qolganligi tabiiy xoldir.

Foydalanish mumkinligi ijtimoiy ta'minotga oid bo'lgan qonunchilik hujjatlarida nazarda tutilgan.

Jumladan, «Fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti to'g'-risida»gi qonunning 66-moddasiga ko'ra pensiya ta'minoti mablag'lari shakllantirilishida mulkchilik shaklidan qat'i nazar korxonalar va tashkilotlar ishtirok etishlari belgilangan. «Nogironlarni ijtimoiy himoya qilish to'g'risida»gi qonunning 38-moddasida belgilanishicha, nogironlarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash va ijtimoiy yordamni pul bilan ta'minlash boshqa manbaalar bilan bir qatorda nogironlarni ijtimoiy himoya qilish jamg'armalari mablag'lari hisobidan, shuningdek, korxonalar, birlashmalar, tashkilotlar va fuqarolarning ixtiyoriy badallari hisobidan ham amalga oshirilishi mumkinligi nazarda tutilgan.

Respublikamiz Prezidenti I.Karimov mulkdorlar sinfini tarkib topdirish haqida so'z yuritar ekan, quyidagilarni ta'kidlagan edi: «Bizda o'tmishda ham



boylar bo'lgan. Ular bizga sho'ro davrida uqdirganlaridek, zolim bo'lmagan. Boy-badavlat odamning butun mahallaga, qishloqqa nafi tekkan»<sup>9</sup>.

Mehr-muruvvat, xotami toylik musulmonlarning o'zbek xalqining qadimiy insoniy fazilatlaridan sanalib kelgan. Shariat har bir mo'min-musulmondan peshona teri bilan rizqu-nasiba topishlikni va halol rizq bilan o'zi, oilasini ta'minlashlikni, basharti ortiqcha molu-davlatga ega bo'lsa, u holda beva-bechoralar, ya'ni mehnatga yaroqsiz, qari-qartang, yetim-yesirlarga ta'minoti uchun fitru-zakot berishlikni talab qiladi.

«Hidoya» kitobida aytilganidek, zakotdan ta'minot olishga haqli bo'lganlar qatoriga faqirlar, ya'ni o'zini ta'minlash uchun zarur bo'lganidan kam mablag'ga ega bo'lgan; miskin, ya'ni tirikchilik o'tkazishlik uchun hyech bir mablag'ga ega bo'lmagan shaxslar kiradilar<sup>10</sup>. Bizning mamlakati-mizda miskinlar va faqirga g'amxo'rlik ko'rsatish davlati-miz siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biridir. Bu nar-sa o'tgan yillarni «Nogironlar yili», «inson manfaatlari yili», «Bolalar yili» deb va nihoyat 2002 yilni «qariya-larni qadrlash yili» deb e'lon qilinishida, shunga muno-sib tarzda ushbu tabaqalarni ijtimoiy himoya qilishga qaratilgan davlat tadbirlari dasturlarini ishlab chiqi-lishi va ro'yobga chiqarilishida ham o'z ifodasini topmoqda.

Bugungi kunda aholini ijtimoiy himoyalash jarayonida ana shunday byudjetdan tashqari manbalar, xususan mamla-katimizdagi homiy va xorijiy mehr-muruvvat tashkilot-lari, ayrim chet el fuqarolari tomonidan ko'rsatilayotgan pul va boshqa shakllardagi moddiy yordamlarni egallariga aniq yetib borishligini ta'minlash, bunda barcha ma'muriy, tashkiliy-huquqiy vositalardan to'liq foydalanish, bu gumanitar yordamlarni adolatli taqsimlash mexanizmlari-ni

---

Karimov I.A. Yangicha fikrlash va ishlash davr talabi.5-jidd. —T.: O'zbekiston, 1997. 337-bet.

<sup>9</sup> Hidoya Kommentariy musulmanskogo prava. -T.: O'zbekiston, 1994.

yaratishi dolzarb vazifalardan biriga aylanib bor-moqda. Chunki bu hol beva-bechoralar, yetim-yesirlarni ta'-minotini yaxshilashga, bu sohada ijtimoiy adolat tamoyil-larini qaror topishiga, balki davlatimiz va jamiyatimiz-ning xalqaro obro'-e'tiboriga, mavqyeiga daxldor bo'lgan masaladir. Boshqalar hisobiga, shu jumladan nochor-notavonlarga ajratiladigan xayru-sadaqa hisobiga boylik orttirish, rohat-farog'atda yashashga intiluvchi, haromdan xazar qilmaydigan kimsalar har qanday davlatda, jamiyatda bo'lgan, hozir ham mavjud maqsad-o'zgalar rizqunasibasini ular tomonian o'zlashtirib, talon-taroj qilib yuborili-shiga yo'l qo'ymaslikdan iborat.

Ana shu maqsadda davlatimiz tomonidan zarur tashkiliy-huquqiy choralar ko'rilmoqda va ijtimoiy muhtoj shaxs-larga atalgan mablag' hamda boshqa yordamlarni to'g'ri taqsimlanishini ta'minlovchi zarur mexanizmlar yaratib borilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2002 yil 26 iyuldagi «Muruvvat yordamidan va beg'araz texnik ko'makdan maqsadli foydalanishni ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida»gi 268-son qarori ana shu maqsadga

(qaratilgan. Mazkur qaror xalqaro moliyaviy va iqtisodiy institutlar, xorijiy hukumat tashkilotlari va hukumatga tegishli bo'lmagan tashkilotlar tomonidan ko'rsatiladigan muruvvat yordami hamda beg'araz texnik ko'makdan qat'iy maqsadlarda foydalanishlikni ta'minlash, ularni talon-taroj qilinishiga, ulardan foyda olish uchun tijorat maqsadlarida va boshqa g'arazli maqsadlarda foydalanish-likka yo'l qo'ymaslikni ta'min etuvchi zarur chora-tadbir-larni nazarda tutadi. Bu qarorni to'liq ro'yobga chiqarilishi xalqaro kanallar orqali gumanitar yordamlar olinishi, ularni maqsadli taqsimlanishiga oid samarali qoidalarni o'rnatilishiga, tartib intizomga o'rnatilishiga xizmat qiladi.

## **II- Bob. O'zbekiston Respublikasida aholini ijtimoiy himoyalashning qonunchilik asoslari va tabaqaviy jihatlari.**

**2&. Aholini ijtimoiy muhofaza qilishga yo'naltirilgan davlat dasturlari va qonunlarining ijtimoiy ahamiyati.**

Mamlakatimizning bosh qonuni O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi bo'lib, u «qonunlar qonuni» sanaladi va milliy huquq tyuimi rivojlanishi uchun

yuridik baza bo'lib xizmat qiladi. Jumladan, ijtimoiy himoyaning bosh qoidalari ham O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasida (7, 14, 18, 32, 35moddalar) belgilab ko'rilgan. Ayniqsa, Konstitusiyamizning 39moddasi ijtimoiy himoya xuquqining manbai sifatida muhim rol o'ynaydi. Ushbu moddada ijtimoiy himoya olish huquqining kafolatlari, ijtimoiy himoyaning asosiy shakllari belgilab berilgan.

O'zbekiston Respublikasi qabul qilingan dastlabki dasturlardan, unga mos keluvchi o'z milliy qonunchilik tizimimizni bunyod etishga e'tibor qaratildi. Jumladan,

1993 yil 3 sentyabrda yangicha g'oyalarga, chet mamlakatlar qonunchilik amaliyoti ilg'or yo'nalishlariga mos keluvchi ijtimoiy himoya sohasidagi eng yetakchi qonun «Fuqarolarning davlat pensiya himoyai to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi qonuni qabul qilindi va uni 1993yildan amalga kiritish ko'zda tutildi. Mazkur qonun o'z mazmunmohiyati hamda ahamiyatiga ko'ra kodifikasiyalovchi xususiyatga ega bo'lib, u tarkibiy jixtdan muqaddima to'qqiz bob va oltmish yettita moddani o'z ichiga oladi. Ushbu qonunning boblari fuqarolarning pensiya himoyai asoslari, shartlari, pensiyalarning asosiy turlari, ularni tayinlanish va to'lanish tartiblarini aks etdovchi qoidalarni nazarda tutadi.

«Harbiy xizmatchilarning pensiya himoyai to'g'risida»gi sobiq Ittifoq qonuni 1990 yil 28 aprelda qabul qilingan va 1991 yil 1 yanvardan boshlab kuchga kiritilgan bo'lib, harbiy xizmatchilar hamda ularning oila a'zolarini pensiya himoyai masalalari ushbu qonunga binoan tartibga solingan. Qonun kirish qism, sakkiz bo'lim va oltmish olti moddani o'z ichiga olgan.

Ushbu qonun umumiy qoidalar, uzoq yillik xizmat pensiyasi, nogironlik pensiyasi, boquvchisini yo'qotganlik uchun pensiya, pensiyani hisoblash, pensiya tayinlash, pensiyani qayta hisoblash deb nomlanuvchi bo'limlardan iborat bo'lib, harbiy xizmatchilarga (Mudofaa vazirligi chegara qo'shinlari, favqulodda vaziyatlar vazirligi, Ichki ishlar vazirligi, Milliy xavfsizlik xizmati harbiy

xizmatchilariga), ularning oila a'zolariga pensiya tayinlash ushbu qonun asosida amalga oshirilishi nazarda tutilgan.

ijtimoiy himoya manbalari sifatida 1991 yil 18 noyabrdagi «Nogironlarni ijtimoiy himoya qilish to'g'risida»gi, 1996 yil 29 avgustdagi «Fuqarolar sog'lig'ini saqlash to'g'risida»gi va boshqa qonunlar ham muhim ahamiyatga ega.

Qonunosti hujjatlari deganda O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi va uning asosidagi qonunlar ijrosini ta'mynlash maqsadida davlat hokimiyati ijroiya hamda boshqaruvi organlari tomonidan qabul qilinadigan normativhuquqiy hujjatlarning yirik qatlami nazarda tutiladi.

Normativ huquqiy hujjatlarning loyihalari huquqiy ekspertizadan o'tkazilishi shart.

Huquqiy ekspertiza davomida normativhuquqiy hujjatning loyihasi O'zbekiston Respublikasining Konstitusiyasi va qonun hujjatlariga, shuningdek, qonunchilik texnikasi qoidalariga muvofiqligi tekshiriladi.

Huquqiy ekspertiza normativhuquqiy hujjat loyihasini tayyorlagan organning yoki normativhuquqiy hujjatni qabul qiladigan organning yuridik xizmati, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan amalga oshirilishi mumkin.

Kiritilgan loyihaning sifatiga baho berish uchun normativhuquqiy hujjatni qabul qiluvchi organning qaroriga binoan normativhuquqiy hujjatning loyihasi boshqa xil (iqtisodiy, moliyaviy, ilmiytexnikavik, ekologiya va o'zga) ekspertizadan ham o'tkazilishi mumkin. Ekspertlar sifatida tegishli loyihani tayyorlashda ilgari bevosita ishtirok etmagan tashkilotlar va shaxslar jalb etiladi. Ekspertiza o'tkazish uchun boshqa davlatlar va xalqaro tashkilotlardan olimlar va mutaxassislar taklif etilishi mumkin. Ekspertlar normativhuquqiy hujjatning loyihasiga baho berishda mustaqildirlar hamda ekspertiza o'tkazishni topshirgan organning nuktai nazari bilan bog'liq emaslar.

ijtimoiy himoya manbalari sanaluvchi normative huquqiy hujjatlar quyidagi shakllarda mavjud bo'lishi mumkin:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, sarorlari va farmoyishlari. Ijtimoiy-iqtisodiy hayotning eng muhim sohalariga oid munosabatlar, qonunchilik sari tub burilishlar, muhim o'zgarishlarni aks ettiruvchi voqyealar Respublika Prezidentiyasining farmonlari shaklida huquqiy ifodalanadi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasining 94moddasiga ko'ra: «O'zbekiston Respublikasining Prezidenti Konstitusiya va qonunlarga asoslanib hamda ularni ijro etish yuzasidan Respublikaning butun hududida majburiy kuchga ega bo'lgan farmonlar, qarorlar va farmoyishlar chiqaradi». Ijtimoiy ta'minot sohasida juda katta ahamiyatga ega bo'lgan O'zbekiston Respublikasi farmonlari jumlasiga O'zbekiston Respublikasining 1996 yil 10 dekabrda «Bolali oilalarni davlat tomonidan qo'llabquvvatlashni yanada kuchaytirish to'g'risida»gi, 1996 yil 4 dekabrda «O'zbekiston faxriylarni ijtimoiy qo'llabquvvatlash «Nuroni» jamg'armasi to'g'risida»gi; 2002 yil 25 yanvarda «Aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlarini aniq yo'naltirilgan tarzda qo'llabquvvatlashni kuchaytirish to'g'risida»gi; 2002 yil 26 martda «2002 yil 1 apreldan boshlab ish haqi, pensiyalar, stipendiyalar va ijtimoiy nafaqalar miqdorini oshirish to'g'risida»gi va boshqa farmonlar kiritilishi mumkin.

2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mshkamasini (hukumati) sarorlari yea farmoyishlari. O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasining 98moddasiga ko'ra: «Vazirlar Mahkamasi amalda qonunlarga muvofiq O'zbekiston Respublikasi hududida barcha organlar, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, mansabdor shaxslar va fuqarolar tomonidan bajarilishi majburiy bo'lgan qarorlar va farmonlar chiqaradi».

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qaror va farmoyishlari ijtimoiy himoya huquqida ijtimoiy himoya davlat va jamoat boshqaruv tizimlarini takomillashtirish, ijtimoiy himoyaning turi va shakllarini o'zgartirish, imtiyozlar

joriy etish hamda boshqa masalalarga taalluqli bo'lishi mumkin. ijtimoiy himoya sohasidagi hukumat qarorlari jumlasiga 1994 yil 23 iyundagi «TMEKlar haqidagi nizomni tasdiqlash to'g'risida»gi; 2000 yil 15 noyabrdagi «O'zbekiston Respublikasida pensiya himoyai tizimlarini takomillashtirish choratadbirlari to'g'risida»gi; 2002 yil 25 yanvardagi «Aholini ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlarini aniq yo'naltirilgan tarzda qo'llabquvvatlashning 20022003 yillarga mo'ljallangan choratadbirlari to'g'risida»gi qarorlar va boshqa qarorlar kiritilishi mumkin.

3. O'zbekiston Respublikasi vazirliklari, davlagp ho'mitalari va idoralarining normativ hujjatlari. O'zbekiston Respublikasining 2000 yil 14 dekabrda qabul qilingan «Normativhuquqiy hujjatlar to'g'risida»gi qonunining 12moddasida aytilishicha:

«Vazirliklar, davlat qo'mitalari va idoralari o'z vakolatlari doirasida buyruqlar va qarorlar shaklida normativhuquqiy hujjatlar qabul qiladi. Nizomlar, qoidalar va yo'riqnomalar tarzida qabul qilinadigan normativhuquqiy hujjatlar buyruq hamda qarorlar bilan tasdiqlanadi.

Vazirliklar, davlat qo'mitalari va idoralarining normativhuquqiy hujjatlari O'zbekiston Respublikasining Konstitusiyasi va qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining, O'zbekiston Respublikasining Prezidenti va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari asosida hamda ularni ijro etish uchun qabul qilinadi.

Vazirliklar, davlat qo'mitalari va idoralarining normativhuquqiy hujjatlari bir necha vazirliklar, davlat qo'mitalari va idoralari tomonidan birgalikda yoki ulardan biri tomonidan boshqalari bilan kelishilgani holda qabul qilinishi mumkin.

Vazirliklar, davlat qo'mitalari, idoralarning tarkibiy bo'limlari va hududiy organlari qonun hujjatlarida bevosita nazarda tutib qo'yilgan hollardan tashqari normativhuquqiy yo'sindagi hujjatlar qabul qilishga haqli emaslar».

Ijtimoiy himoya masalalariga oid normativ huquqiy hujjatlar O'zbekiston Respublikasi Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi tomonidan O'zbekiston Respublikasi vazirliklari va idoralari bilan birga yoki kelishilgani holda (Moliya vazirligi, Sog'liqni saqlash vazirligi, Davlat soliq qo'mitasi, O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki va hokazolar bilan birga yoki kelishilib) qabul qilinishi mumkin. Bunday normativ huquqiy hujjatlarga inson tariqasida O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2001 yil 16 martda ro'yxatga olingan «Majburiy badallarni hisoblash va to'lash hamda byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga davlat ijtimoiy sug'urtasi bo'yicha ajratmalar ajratish to'g'risidagi yo'riqnomani tasdiqlash to'g'risida»gi qarori; 1999 yil 4 iyunda ro'yxatga olingan ...16 yoshga yetmagan bolali oilalarga nafaqa tayinlash hamda to'lash tartibi yuzasidan uslubiy yo'riqnoma va boshqalar ko'rsatilishi mumkin.

4. Mahalliy davlat hokimiyat organlarining normativ hukusiy hujjatlari. O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasining 99moddasida aytilishicha: «Viloyatlar, tumanlar va shaharlarda (tumanga bo'ysunadigan shaharlardan, shuningdek, shahar tarkibiga kiruvchi tumanlardan tashqari) hokimlar boshchilik qiladigan xalq deputatlari Kengashlari hokimiyatning vakillik organlari bo'lib, ular davlat va fuqarolarning manfaatlarini ko'zlab o'z vakolatlariga taalluqli masalalarni hal etadilar».

Konstitusiyaning 100moddasi, 2qismiga ko'ra «Normativ hujjatlarni qabul qilish hamda O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasiga va O'zbekiston Respublikasi qonunlariga zid kelmaydigan boshqa vakolatlarni amalga oshiradilar».

Davlat hokimiyati mahalliy organlari ijtimoiy himoya huquqi masalalarda mahalliy ahamiyatga ega bo'lgan me'yoriy hujjatlar qabul qilishi mumkin.

Korxonalar va tashkilotlar, tarmos, hudud kasaba uyushmasi organlari ish beruvchilar bilan o'zaro kelishgan holda lokal hujjatlar (jamoat shartnomasi? jamoat



kelishuvi) qabul qilishlari va ularda ijtimoiy himoyaga oid masalalarni ham hal etishlari mumkin.

Xalsaro huquqiy hujjatlar. Bulardan eng muhimlari O'zbekiston Respublikasi tomonidan qabul qilingan (ratifikasiyalangan) umume'tirof etgan deklarasiya va konvensiyalardir.

«Fuqarolarning davlat pensiya himoyai to'g'risida»gi qonunning 6 moddasida aytilishicha: «O'zbekiston Respublikasi bilan boshqa davlatlar o'rtasidagi ijtimoiy himoya to'g'risidagi bitimlar (shartnomalar)da ushbu qonundagidan boshqacha qoidalar nazarda tutilgan hollarda, ana shu bitimlar (shartnomalar)da belgilangan qoidalar tegishli ravishda qo'llaniladi».

Ijtimoiy himoya manbalari sanaluvchi xalqarohuquqiy hujjatlar qatoriga «Inson huquqlari umumjahon deklarasiyasi»; «Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to'g'risidagi pakt», MDH davlatlari tomonidan 1992 yil 13 yanvarda imzolangan «MDH a'zosi bo'lgan davlatlarni pensiya himoyai sohasida fuqarolar huquqlari kafolatlari to'g'risida»gi axdlashuvi va boshqalar kiritilishi mumkin.

Qonun hujjatlarining vaqt, hudud va shaxslar o'rtasida amal qilishiga doir qoidalar yuqorida qayd etib o'tilgan "Normativ huquqiy hujjatlar to'g'risida"gi qonunda nazarda tutilgan.

Ijtimoiy himoya sohasidagi normative huquqiy hujjatlar vaqt, hudud (fazo) va shaxslar orasida qo'llaniladi hamda ushbu muhitlarda amal qilish xususiyatlarini to'g'ri tushunib yetish ularning to'g'ri tatbiq etilishi, qonunchilikni mustahkamlanishi, xatolar oldini olinishida muhim ahamiyatga ega bo'ladi.

Ijtimoiy himoya sohasidagi qonun hujjatlari vaqt doirasida kuchga kirgan paytidan boshlab bekor qilinguniga qadar yoki uning o'rniga boshqa normativhuquqiy hujjat qabul qilinguniga qadar amalda bo'ladi. Ularning vaqt doirasida amalda bo'lishi, kuchga kirish vaqti, bekor qilinishi yoki amal qilishining

tugatilishi masalalari O'zbekiston Respublikasining «Normativ huquqiy hujjatlar to'g'risida»gi qonunida (26modda) belgilab qo'yilgan.

Ijtimoiy himoyaga oid normative huquqiy hujjatlar odatda O'zbekistonning butun hududida amal qiladi. Ammo uning bevosita o'zida yoki normative huquqiy hujjatni amalga kiritish to'g'risidagi qarorda uning hudud bo'yicha ta'siri cheklanishi mumkin (masalan, rayon koeffitsiyenti ko'shib berish haqidagi aktlar faqat tegishli hududlarda qo'llanilishi va hokazo).

Ijtimoiy himoya munosabatlariga taalluqli bo'lgan qonun hujjatlari shaxslar o'rtasida amal qiladi va bunda ular odatda barcha yuridik va jismoniy shaxslar uchun majburiy kuchga ega bo'ladi.

«Normativ huquqiy hujjatlar to'g'risida»gi qonunning 29moddasida:

«Normativ huquqiy hujjatlarning amal qilishi O'zbekiston Respublikasining fuqarolari va yuridik shaxslariga, agar O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasida boshqa qoida belgilanmagan bo'lsa, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi hududidagi xorijiy yuridik shaxslarga, ajnabid fuqarolar va fuqaroligi bo'lmagan shaxslarga tatbiq etiladi», deyiladi.

Normativ huquqiy hujjatning o'zida u qo'llaniladigan shaxslar doirasi cheklab qo'yilishi mumkin. Masalan, «Fuqarolarning davlat pensiya himoyai to'g'risida»gi qonunda belgilangan pensiya olish huquqi faqat jismoniy shaxslargagina taallukli, yoki bo'lmasa, pensiya jamg'armasiga ish haqi fondidan badallar to'lash majburiyati faqat yuridik shaxslargagina qo'llaniladi va hokazo.

Ijtimoiy himoyaga oid sonun hujjatlarini sharhlash uning mazmunini ochib berish, noaniqliklar yuzasidan tushuntirish berishdan iborat. Ularni rasmiy sharhlash va ilmiy sharhlash o'zaro farqlanadi.

Ijtimoiy himoya sohasidagi qonun hujjatlarini rasmiy sharhlash «Normativhuquqiy hujjatlar to'g'risida»gi qonunning 31moddasida bayon etilgan.

Rasmiy sharhlash O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyaviy sudi tomonidan yoki qonun hujjatini qabul qilgan davlat organi tomonidan amalga oshirilishi mumkin.

Qonun hujjatlarini ilmiy sharhlash ayrim olimlar, mutaxassislar, ilmiy muassasalar tomonidan amalga oshirilishi mumkin. Rasmiy sharxdashdan farq qilib, ilmiy sharhlash qoidalari majburiy yuridik kuchga ega bo'lmaydi va qonun mazmunini to'g'ri tushunish, to'g'ri qo'llashga yordam berishga qaratiladi. Bunday norasmiy sharhlash ayrim hollarda sud organlari tomonidan ham amalga oshirilishi mumkin.

Bozor iktisodiyotiga utish jarayonida axolini ijtimoiy ximoyalash muxim tamoyil davlat siyosatining bosh yunalishi bulib koldi. BINobarin, mamlakatda utkazilayotgan barcha isloxotlarning asil maksadi insonga munosib turmush sharoitlarini vujudga keltirishdir»

Bozor munosabatlariga utishning ilk davridan boshlab axolini oldindan ijtimoiy ximoyalash yuzasidan zarur chora-tadbirlar kurib borildi. Shu maksadda mikdori muntazam uzgartirib turilgan ish xaki va pensiyalar, stipendiyalar, turli nafakalar, kompensasiya tulovlari tarzidagi pul tulovlari, imtiyozlar turli dotasiyalar tarzidagi tulovlarni joriy kilish usuli keng kullanildi.

Eng kam ish xaki va pensiyalardan solik olinmaydigan buldi. Korxonalarining uz xodimlariga ijtimoiy yordam kursatish soxasidagi xarajatlaridan bir kismi byudjet mablaglari xisobidan koplanib turildi. Keng iste'mol mollari va xizmatlarning kupgina turlari buyicha narxlardagi tafovutlarning urni davlat byudjeti xisobidan koplandi. Shu bilan birga kushimcha ijtimoiy imtiyozlar xam joriy kilindi. Masalan, birinchi — beshinchi sinf ukuvchilari va yolgiz pensionerlar uchun bepul nonushtalar, 2 yoshgacha budgan bolalar uchun bepul ovkat, maktab ukuvchilari va talabalar uchun ovk;atning arzonlashtirilishi kabi imtiyozlar berildi. Shuningdek, kupgina toifadagi fukarolarga turar joyi bepul shaxsiy mulk kilib berildi, ba'zi turdagi kommunal xizmatlar xakini tulashda yengilliklar joriy etildi va xokazo.

«Biz, — degan edi I. Karimov, — axolining ijtimoiy jixatdan nochor tabakalari — pensionerlar, nogironlar, kup bolali va kam daromadli oilalar, ishsizlar, ukuvchi yoshlar, shuningdek kayd etilgan mikdorda daromad oluvchi kishilarni ximoya qilish davlatning mukaddas burchidir, degan koidaga asoslanib ish tutdik».<sup>11</sup>

Ish xakkini oshirish bilan birga barcha toifadagi makgablarning muallimlari, bolalar uylari, maktabgacha va maktabdan tashkari muassasalar tarbiyachilari, oliy va urta maxsus ukuv yurtlarining professor-ukituvchilari va ilmiy xodimlari, ijodiy va tibbiy xodimlarni ijtimoiy ximoyalash va ularning mexnatini ragbatlantirish maksadida ularga kushimcha moddiy ne'matlar — kvartira xaki va kommunal tulovlar soxasida imtiyozlar berildi, yakka tartibda uy-joy kurib olish uchun yer uchastkalari birinchi navbatda ajratiladigan buldi. Masalan, 120403 ukituvchining davlat va tashkilotlar tomonidan berilgan uylari bepul xususiylashtirildi, 35841 kishiga shaxsiy kurilish uchun yer uchastkasi berildi, 489256 ukituvchi imtiyozli kommunal xizmatdan, 83353 ukituvchi shaxar transportidan bepul foydalanayotir. Ayni chokda yolgiz pensionerlarni turar joy va kommunal xizmatlar uchun xak tulashdan ozod etish tugrisida karor kabul kilindi. Ular dori-darmonlar va eng zarur mollarni belgilangan me'yorda bepul olish va jamoat transportida tekin yurish xukukidan foydalanadigan buldilar. Ularga madad berish uchun respublikada maxsus ijtimoiy yordam bulimlari tuzildi. Bu bulimlar yolgiz pensionerlar va nogironlarning uyida ijtimoiy-maishiy xizmat kursatishni uyushtirmokda.

Respublikadagi 27 mingdan kuprok yolgiz k.ariyadan 24 ming nafardan kuprogi uzgalar parvarishiga muxtoj bulganligi sababli ularga ijtimoiy xizmat kursatadigan xodimlar biriktirildi, 3 mingdan ortik yolgizlarga ijtimoiy-maishiy va tibbiy xizmat kursatilmokda.

Yoshlarni ijtimoiy ximoyalashga, ularga ishlab chikarishdan ajralgan xolda ukib, bilim olish uchun zarur sharoit yaratishga e'tibor berildi. 2001-2010 iillarda

---

<sup>11</sup> [www.gov.uz](http://www.gov.uz)

stipendiyalar bir necha marta oshirildi. O'quv dargoxlari oshxonalaridagi narxlar arzonlashtirildi. Milliy an'analar nazarda tutilib, birinchi bor nikoxdan utayotgan kelin-kuyovlar mebel va gilam maxsulotlari sotib olishda imtiyozli tartibdan foydalandilar.

1994 yil 24 avgustda Prezidentning «Kam ta'minlangan oilalarni ijtimoiy ximoya qilishni kuchaytirishga oid tadbirlar tugrisida»gi Farmoni kabul kilindi.<sup>12</sup> Farmonga kura 1994 yilning oktyabridan O'zbekistonda axolini ijtimoiy ximoyalash tizimi tubdan uzgartirildi. Ilgari fakat respublika byudjeti yuli bilangina 30 ta turli soxa va yunalishlar buyicha ijtimoiy ximoya amalga oshirilardi, bu esa mablagning sochilib ketishiga olib kelib tula samara bermayotgan edi. Yangi tizimning moxiyati shundan iboratki, bolalar va kam daromadli oilalar ijtimoiy yordamdan baxramand buluvchi asosiy kishilar bulib koldi. Ijtimoiy yordam anik maksadli va axolining ma'lum tabakalarini kamrab oladigan buldi. Endi moddiy yordam maxalla tomonidan oila orkali yetkazib beriladigan buldi. Oila asosiy mavkega ega buldi. Bunday yondoshuv umuminsoniy kadriyatlarga, milliy an'analarga va ruxiyatga mos keldi.

Ijtimoiy ximoyalashning yangi tizimida farzand tugilganda, bir yula beriladigan tulovlar saklab kolinishi bilan birga nafakalar va imtiyozlarning kuyidagi turi xam amalga oshiriladigan buldi. Masalan, bola bokuvchi onalarga tulanayotgan nafakaning mikdori kupaytirilibgina kolmay, uning muddati xam uzaytirildi. Ilgari bunday yordam bir yarim yilgacha tulangan bulsa, endi bu muddat ikki yilgacha uzaytirildi. Ishlovchi onalar xam, ishlamaydigan onalar xam, bu nafakadan foydalanadigan buldilar», Masalan, 2010 yil ijtimoiy ximoyaga ajratilgan mablagning 3 foizi onalarga ikki yoshgacha farzandlarini parvarish kilish uchun

---

<sup>12</sup> I.Karimov I.A. Inson manfaatlarini ta'minlash, ijtimoiy himoya tizimini takomillashtirish-ustivor vazifamizdir. O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasining 4 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi ma'ruzasi. Xalq so'zi gazetasi. .

ajratildi. Boshka davlatlardan farkli ularok, O'zbekistonda bu nafaka ish xakining eng oz mikdoriga boglik kilib kuyildi.

2009 yilda 500 mingdan ortik extiyojmand oilalarga maxalla kumitalari orkali jami 6 milliard sum moddiy yordam berildi.

2010 yil 10 dekabrda bolali oilalarga ijtimoiy yordam berilishini kuchaytirish, axolini ijtimoiy ximoya kilish borasidagi chora-tadbirlarni ruyobga chikarishda fukarolarning uzini-uzi boshkarish organlarining roli va mas'uliyatini oshirish maksadida «Bolali oilalarni davlat tomonidan kullab-kuvvatlashni yanada kuchaytirish tugrisida» yana bir muxim Farmon kabul kilindi. Unda 1997 yil 1 yanvardan boshdab fukarolarning uzini-uzi boshkarish yiginlari orkali yordamga muxtoj, bolali oilalarga bolalarning soniga karab eng oz ish xakining 50 foizidan boshlab 175 foizigacha nafakalar beriladigan buldi. Bu borada ijtimoiy adolat tamoyillariga ogishmay rioya etish, keng oshkoralik va ochikdikni ta'minlash, ajratilgan mablaglardan maksadli va samarali foydalanishga erishish lozimligi kayd kilindi.

Davlat mustaxkamlana borgan sari uning xalkparvarlik siyosati yanada kuchaydi. Prezidentning 1995 yil 20 dekabrda chikargan «Axolining omonatlardagi va davlat sugurtasi buyicha pul mablaglarini indeksasiya kilish tugrisida»gi Farmoni ana shunday insonparvar siyosatning yorkin dalili buldi. Farmonga binoan 1992 yilning yanvariga kadar jamgarma bankiga pul kuygan millionlab fukarolarning mablaglari yana kadrlandi. Farmon asosida Vazirlar Maxkamasi maxsus karor kabul kildi. Mazkur Farmon va karor vatanimizda yashayotgan bironta keksayu yoshni befark koldirmadi. 5 milliondan ortik omonatchilar uz pullarini kaytarib olishdi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasiing 41-moddasida «Axoli malakali tibbiy xizmatdan foydalanishga xaklidir», — deb yozib kuyilishi katga ijtimoiy-siyosiy axamiyatga ega buldi.

O'zbekiston Respublikasida sog'likni saqlash tizimining asosiy vazifasi kilib kasalliklarning oldini olish, xastalarni davolab dardsan forig kilish, yashash mu'itini soglomlashtirishdan iborat kilib belgilandi. Bunda xalk tabobatining boy an'analariga, ilmfan va texnikaning ilgor yutuklariga, olim va mutaxassislarning zakovatu saloxiyatiga suyanish kuzda tutiddi. O'zbekiston uz istikloliga ega bulgandan sung ijtimoiy soxadagi eng muxim masala sifatida axoli SOGLIRINI saqlash mamlakat Prezidenti va xukumatining doimo dikkat-e'tiborida buldi.

2000 yilga kelib O'zbekistonda kasalxonalar soni 1370 taga, urinlar soni 256,6 mingga, vrachlar soni esa 71,1 mingga yetgan edi. Sovetlar tuzumi davrida sog'likni saqlash tizimi kengaygan bulsada, lekin yerga turli xil kuchli ximikatlar solinishi, paxta yakka xokimligi va boshka ijtimoiy okibatlar natijasida axoli orasida kasalliklar kupayib kettan edi. O'zbekistonda xar yili 8 millionga yakin kishi xastaligi tufayli tibbiy muassasalarga murojaat etib, shulardan 240 ming kishi yukumli kasalliklar (shularning 120 mingi gepatit) bilan ogrib turdi, ayni vaktida ularning 70 foizi bolalar edi. Gudaklar orasida ulim yangi tugilgan \yar 1000 bola xisobidan olganda 35,5 nafarga tugri keldi. X,ar yili urta xisobda 24 ming bola bir yoshga yetmay ulib ketardi. Onalar urtasidagi ulim tirik bola tukkan 100 ming ayol xisobiga 65,3 taga tugri kelardi. Odamlarning urtacha umri jaxonning rivojlangan mamlakatlari — Yaponiya, Shvesiya, Buyuk Britaniya va boshkalarga kiyosan olganda 8—10 yil kam edi.

O'zbekiston mustakillikka erishgandan sung axolining salomatligini muxofaza kilish muammolari k,aytadan kurila boshlandi. Bunda tarakkiyotning ekstensiv yulidan voz kechib, intensiv yuliga utish, ayni vaktida soxaga muljallanadigan mablagni respublika axolisining xar bir jon boshi xisobidan ajratish, sog'likni saqlash ishining asosiy taomili — profilaktik yunalishni tiklash, onalar va bolalar muxofazasini kuchaytirish, tibbiy ta'lim tizimi va kadrlar siyosatini islox kilish, mamlakatda yetarli dori-darmon, tibbiyot ashyolari xamda texnika vositalari ishlab chikaradigan sanoat vujudga keltirish, sog'likni saqlash muassasalarining moddiy-texnik bazasini yanada yaxshilash, davolash-profilaktika muassasalarini davlat

tasarrufidan chikarib, mulkchilik shaklini uzgartirish va sugurta tabobatiga utish asosiy vazifa kilib kuyildi. Soglikni saklash extiyojlari uchun 1994 yili milliy daromadning 4,1% mikdorida mablag ajratilgan bulsa, 2000 yilga borib u (baxolar uzgarishini xam xisobga olgan xolda) 6,5—7% ni tashkil etishi kuzda tutildi.

Axoli sogligini muxofaza kilish kup jixatdan davlat sanitariya-epidemiologiya xizmati faoliyatiga boglik. O'zbekistonda sanitariya-epidemiologiya stansiyalari va axoli urtasida sorlom turmush tarzini shakllantirishning tashkiliy-metodik va muvofiklashtiruvchi ishlarini olib boradigan «Salomatlik» markazlari bu vazifani amalga oshira boshladi. 1991 yili Toshkentda diagnoz kuyish buyicha respublika axolisiga xizmat kursatuvchi «Diagnostika» markazi ishga tushirildi. 1995 yil oxiriga kelib dispanser nazorati urnatildi. Ishchilarga davolash-profilaktika xizmati kursatish, xususan, sanatoriy-profilaktoriylar tarmogi kengaytirildi. 1991 yildan ommabop «Sixat-salomatlik» jurnali (bosh muxarriri Nabi Majidov) nashr etila boshladi.

O'zbekistonda tugilish kup bulgani va axolining kupchilik kismini bolalar tashkil etgani uchun onalar va bolalar salomatligi muxofazasi xamisha eng muxim va dolzarb masalalardan biri bulib keldi. Onalar va bolalar sogligini saklash, ularga tibbiy yordam kursatish ishlarini uyushtirish va rivojlantirishda tibbiyot oliy ukuv yurtlarining pediatriya, akusherlik va ginekologiya kafedralari, shuningdek ixtisoslashgan ilmiy-tadkikot institutlari — pediatriya, akusherlik va ginekologiya institutlari katta rol uynadi. Onalikni muxofaza kiluvchi va ixtisoslashgan pediatriya yordami kursatuvchi muassasalar tarmogi kengaydi. 1995 yildan 109 dan ziyod ayollar konsultasiyalari yoki akusherlik yukologiya kabinetlari, 1800 dan ortik bolalar poliklinikalari (maslaxatxonalar) ish olib bordi, kasalxonalarda bolalar uchun ajratilgan urinlar soni 1507 mingtaga yetdi. Turmushga alokador masalalar yuzasindan maslaxat beradigan «Nikox va oila» maslaxatxonalar va tibbiy-genetik maslaxatxonalar ochildi.



Soglikni saklash tizimida kadrlar tayyorlash diqqat e'tiborda buldi. O'zbekistonda 1995 yili barcha ixtisosliklar buyicha 75117 vrach, 24 urta ma'lumotli tibbiyot xodimlari, 2571 farmasevt ishladi. Respublikada vrachlar sonining uzi 1995 yili 1991 yildagiga Karaganda 106 foiz kupaydi. 1995 yili O'zbekistonda 5608 oliy ma'lumotli mutaxassis, jumladan, davolash ishlari buyicha — 2517, pediatriya buyicha — 2083, gigiyena, sanitariya va epidemiologiya buyicha — 321, stomatologiya buyicha — 328, farmasiya buyicha — 359 mutaxassis tayyorlandi. «Davolash ishlari» ixtisosligi buyicha vrach kadrlar tayyorlash ishi 3 boskichdan iborat kilib belgilandi. Birinchisi — tabobat buyicha 5 yil davomida umumiy tayyorgarlik kurib, bakalavr, ya'ni vrach yordamchisi vakolatini oladi; ikkinchisi — tulatukis tibbiy ma'lumotga ega bulib, tibbiyot doktori darajasiga erishadi;

Uchinchisi — tibbiyot doktori tanlagan ixtisosiga karab 2 yildan 4 yilgacha muddat ichida magistraturada taxsil kuradi.

Magistraturada mutaxassis vrach tayyorlash eng yaxshi ilmiy maktablar va klinikalarda olib borildi. Ayni vaktida zamonaviy ta'lim texnologiyasidan foydalanila boshlandi. Shu bilan birga, mutaxassislarning malakasini tekshirib borish yoki oshirish maksadida ular vakti-vakgida sinov (attestasiya)dan "Utkazib turildi.

Dorixonalar ishi va tibbiy texnika bilan ta'minlanish isloxotlarning asosiy kismi buldi. Agar Turkistonda birinchi dorixona dastlab 1874 yili Toshkent shaxrida ochilgan bulsa, 1996 yil oxiriga kelib ularning soni O'zbekistonda 3980 dan oshib ketdi. Oliy va urta ma'lumotli farmasevtlar va provizorlar soni SplM ancha kupaydi. O'zbekistonda dori-darmonlar, tibbiy uskuna va apparatlarni ishlab chikarishni yulga kuyish maksadida 1992 yili farmakologiya va farmakologiya kumitalari tuzildi. 1993 yili «Farmindustriya» konserni tashkil etildi.

Soglikni saklash tizimini tibbiyot sugurtasiga utkazish va davolash-profilaktika muassasalarind davlat tasarrufidan chikarish masalasi keyingi yijlarda muxim masala bulib koldi. Davlat byudjetidan ,ajratiladigan mablag xisobida mavjud bulib

kelgan soglikni saklash tizimida bozor munosabatlari shakllanib, iktisodiy isloxotlar chukurlashib borayotgan sharoitda tibbiyot sugurtasiga utish uchun tayyorgarlik kurila boshlandi. Ayni vaktida kup mamlakatlardagi sugurta xizmatlari tajribalari urganildi, turli idora va tashkilotlar bilan xujalik shartnomalari tuzildi. Tibbiyot sugurta» sigiga utish davolash-profilaktika muassasalarini davlat tasarrufidan chikarish bilan xam boglik, chunki davlatga karashli muassasalar bilan birga mulkchilikning xar xil shakllariga asoslangan muassasalar, jumladan, xususiy muassasalar xam faoliyat kursatib borishi kerak. O'zbekiston Respublikasining \ 1991 yil 19 noyabrda kabul kilingan «Davlat tasarrufidan chikarish va xususiylashtirish tugrisida»gi Konuniga amal kilib, Soglikni saklash vazirligi manfaatdor idora va tashkilotlar bilan birgalikda soglikni saklash muassasalarini xususiylashtirish tadbirlarini ishlab chikdi. Xususiylashtirish dorixonalaridan boshlandi. 1996 yilga kadar mamlakatda 2200 dorixona xususiylashtirildi, 839 dorixonani uz tarkibiga olgan 239 dorixona aksionerlik jamiyatiga aylantirildi.

## Xulosa

Onalik va bolalikni himoya qilish, sogʻlom turmush tarzini qaror toptirish, shifokorlik kasbining nufuzini oshirish boʻyicha oldingi yillarda boshlagan ishlarimizni izchil davom ettirish va ularni yangi, yuksak bosqichga koʻtarish borasida amalga oshirilgan ishlarni hamda beminnat homiylik yordami koʻrsatish, beva-bechora va yetim-esirlarning boshini silash, muhtoj va kam taʼminlangan toifalarga koʻmak berish kabi xalqimizga xos fazilatlarni hayotimizda milliy qadriyat darajasiga koʻtarish. Mazkur yilda alohida davlat dasturi asosida muhtoj va kam taʼminlangan oilalarga davlat va nodavlat tashkilotlari va homiylar koʻmagida 10 milliard soʻmlikdan ziyod qoramol olib berilgani, 2 ming nafar yolgʻiz kekxa va 66 ming kam taʼminlangan oilaning 3 million 570 ming kvadrat metr uy-joyi taʼmirlab berilgani, 23 ming nafar qarovchisiz qariya va nogiron kishilarga ijtimoiy xizmat koʻrsatilgani, respublikamizdagi barcha “Saxovat” va “Muruvvat”, ”Mehribonlik” uylari hamda maxsus maktab-internatlarga homiylar tomonidan 3,5 milliard soʻmlik moddiy yordam berilgani, 725 ming nafar boshlangʻich sinf oʻquvchisi 16 milliard soʻmlikdan ziyod kiyim-bosh bilan taʼminlangani, 521 ming nafar bolaga qariyb 15 milliard soʻmlik darslik va oʻquv qurollari sovgʻa sifatida berilgani, “Homiylar va shifokorlar yili”da hammasi boʻlib 284 milliard soʻm, jumladan, 133 milliard soʻm byudjet mablagʻi, 151 milliard soʻmdan ziyod idora va tashkilotlar, homiylar mablagʻlari sarflangani alohida diqqatga sazovordir.

2007 yilni yurtimizda “Ijtimoiy himoya yili” deb nomlashga va shu asosda davlat dasturi ishlab chiqib, undagi ustuvor vazifalarni ertangi kun hayotida ijro etishda qanday insoniy maqsadlar bor?

Sir emas, bugun aksariyat ilgʻor mamlakatlarda davlat tomonidan fuqarolarni ijtimoiy muhofaza qilish boʻyicha katta tajriba toʻplangan. Pensiya taʼminoti, aholining nochor qatlamiga davlat tomonidan ajratiladigan turli shakldagi toʻlovlar shular jumlasidan. Ammo... Oʻzbekistonda bizning kuchli ijtimoiy muhofaza borasidagi islohotlarimiz mazmun-mohiyati faqat shular bilangina

chegaralanmaydi. Tasavvur qiling, qarovchisi bo‘lmagan yolg‘iz qariya betoblanib qoldi. To‘g‘ri, davlat tomonidan unga mablag‘ — moddiy yordam ajratilayapti. Uyida osh-nonga ham, dori-darmonga ham yetarlicha puli bor.

Biroq na bozorga, na dorixonaga chiqib, ehtiyoji uchun zarur narsalarni olib kelishga majolu madori yetmaydi. Xo‘sh, bu holda uni kim ijtimoiy himoya qiladi? Kim bir kosa issiq ovqatu ikki og‘iz shirin so‘z bilan holidan xabar oladi, ko‘nglini ko‘taradi? Buni Davlatimiz rahbari Islom Karimov O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 14 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi o‘z ma‘ruzasida quyidagicha izohladi: “O‘z-o‘zidan ravshanki, ijtimoiy himoya masalasi — bu faqat davlat va hokimiyat tashkilotlari, ijtimoiy ta‘minot va xayriya muassasalarining ishi bo‘lib qolmasligi lozim. “Ijtimoiy” degan so‘zning ko‘pchilikka, jamoatchilikka mansub degan ma‘noni ifoda etishini inobatga oladigan bo‘lsak, bu o‘ta muhim masala jamiyatimizning, barchamizning burchimizga aylanishi darkor.” Ha, davlatimizning ijtimoiy himoya siyosati xuddi mana shunday qarash va yondoshuvga asoslanadi. Ya‘ni ijtimoiy himoya nafaqat davlat, balki jamiyat tomonidan ham ongli ravishda amalga oshirilsa, bu borada ko‘zlagan maqsadlarimiz samarasi yuqori bo‘lishi tabiiy.

Mana, o‘tgan keyingi 3-4 yillik hayotimizni tahlil etaylik. Davlat islohotlari natijasida aholining ishsiz qatlami ijtimoiy muhofazalandi, ehtiyojmand insonlarga mehr-muruvvat ko‘rsatildi, kam ta‘minlangan oilalarga imtiyozli kreditlar ajratildi, chorva mollari berildi, kasanachilik yo‘lga qo‘yildi, mahalla fuqarolar yig‘inlari tomonidan nochor fuqarolar moddiy va ma‘naviy ko‘mak bilan ta‘minlandi va hokazo. Xo‘sh, bu jarayonda jamiyatning ishtiroki qanday bo‘ldi? Umuman, ijtimoiy himoya ishi odamlarga — jamiyatga qanday vazifalarni yuklaydi? Aytish joizki, ijtimoiy himoya, mehr-muruvvat, saxovat tushunchalari til boyligimizda kecha yoki bugun paydo bo‘lgani yo‘q. Buning tarixiy ildizlari necha ming yillik uzoq o‘tmishimizga borib tutashadi. Shu ma‘noda jamiyatni ijtimoiy muhofaza yo‘nalishidagi xayrli ishlarga jalb qilish emas, balki bizda bu sohada qadimdan mavjud bo‘lgan milliy an‘analarni yanada kuchaytirish lozim.

Hullas, mamlakatimizda amalga oshirilayotgan Ijtimoiy himoyaning asosiy maqsadi aholi farovonligining to‘xtovsiz yaxshilanishini ta’minlash, aholi qatlamlarining ta’lim, madaniyat, kasb malakasi, daromadlari jihatidan keskin tafovutlariga barham berish, jamiyat tomonidan insonga munosib hayot darajasini va inson taraqqiyotini ta’minlashga yordam berishdan iboratdir.

## Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Karimov I.A. Inson manfaatlarini ta'minlash, ijtimoiy himoya tizimini takomillashtirish-ustivor vazifamizdir. O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasining 14 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi ma'ruzasi. Xalq so'zi gazetasi. 2006 yil, 8 dekabr.
2. Karimov I.A. Biz kelajagimizni o'z qo'limiz bilan quramiz. T.7. -«O'zbekiston», 1999.
3. I.A. Karimov. Barkamol avlod orzusi. T.1998 yil.
4. I.A. Karimov. Yuksak ma'naviyat engilmas kuch. T.2009 yil
5. Mamlakatimizni modernizasiya qilish va kuchli fuqarolik jamiyati barpo etish – ustivor maqsadimizdir. – Prezident Islom Karimovning O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlisidagi ma'ruzasi // Xalq so'zi
6. «16 yoshgacha bolali bo'lgan oilalarga nafaqa tayinlash va to'lash to'g'risida» gi Nizom va «Ishlamaydigan onalarga bolani 2 yoshga to'lguncha parvarish qilish bo'yicha nafaqa tayinlash va to'lash to'g'risida» gi Nizomga muvofiq.
7. Bolali oilalarga davlatning ijtimoiy yordamini kuchaytirish to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmoni // O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi. – Toshkent, 1995.
8. Гриффин К. Социальная политика и экономическая преобразования в Узбекистане. ПРООН, 1995.
9. M.B. Bekmurodov., A. Begmatov. Milliy mentalitet va rahbar ma'naviyati. – Toshkent: Adolat, 2003.
10. Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to'g'risidagi Xalqaro Pakt // Inson huquqlari bo'yicha xalqaro shartnomalar to'plami. Mas'ul muharrir Saidov A. – Toshkent: Adolat, 2004.

11. Саидова Г. Социальная политика правительства Узбекистана в переходном периоде: достижения и проблемы // Экономическое обозрение. – Тошкент, 1998
12. Алибекова С., Саидов К. Проблема бедности в Узбекистане в переходный период // Аҳолини турмуш даражасини кўтариш ҳамда ижтимоий ҳимоясини кучайтириш йўллари ва воситалари: Илмий-амалий конференция материаллари. – Самарқанд: СамДУ нашри, 2002
13. Игнатов В., Бутов В. Местное самоуправление: Российская практика и зарубежный опыт. – М.: MapT, 2005.
14. A.Xolbekov. Boshqaruv sosiologiyasi. – Toshkent: Akademiya, 2007.
15. O'zbekistonda ma'naviyat, ma'rifat, fan va jamoatchilik fikri. Jamoatchilik fikrini o'rganish "Ijtimoiy fikr" Markazi hisobotidan // Ijtimoiy fikr. Inson huquqlari. – Toshkent, 2003.
16. O'zbekiston Reslubdikasi Vazirlar Maqkamasining 2002 yil 25 yakvardagi «Ayollar va o'sib kelayotgan avlod sog'lig'ini mustahkamlashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi qarori.
17. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1994 yil 8 yanvardagi «Aholini dori-darmon vositalari bilan ta'minlashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi qarori .
18. O'zbekiston Respublikasining Solik kodeksi. O'zbekiston Respublikasi Qonun xujjatlari to'plami, 2007 y. 52 maxsus son.
19. O'zbekiston Respublikasi Hukumatining qarorlari to'plami, 2002 yil, 3-son.
20. Hidoya Kommentariy musulmanskogo prava. -T.: O'zbekiston, 1994.

#### **Internet saytlari:**

[www.gov.uz](http://www.gov.uz)

[www.uza.uz](http://www.uza.uz)

[www.natlib.uz](http://www.natlib.uz)